

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
“IJTIMOIY-IQTISODIYOT” FAKULTETI

Bitiruv malakaviy ishi

himoyaga tavsiya etildi

“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri

prof. R.A.Seytmuratov

“ ” 2018-yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Hududlarda sanoatini rivojlantirish orqali
bandlikni ta'minlash**

Bajardi: “Iqtisodiyot” yo'nalishi

4-kurs talabasi Majidov Doston

Ilmiy rahbar: “Iqtisodiyot” kafedrası

dots. B.Bozorov

Samarqand-2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB SANOAT KORXONALARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	6
1.1. Milliy iqtisodiyotni etakchi tarmoqlarini modrenizatsiyalashtirishda sanoat korxonalarini roli.....	6
1.2. Sanoat korxonalarini modernizatsiyalashtirishda kapital qo'yilmalarni jalb etish holatini tahlili.....	26
II-BOB SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI TIKLASH VA YANGILARINI TASHKIL ETISH ORQALI BANDLIKNI TA'MINLASH HOLATINI TAHLILI.....	32
2.1. Samarqand viloyatida sanoatni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash holatini tahlili.....	32
2.2. Sanoat korxonalar faoliyatini tiklash orqali ish o'rinlarini tashkil etish holatini tahlili.....	41
III-BOB SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH VA YANGILARINI TASHKIL ETISH ORQALI YANGI ISH O'RINLARINI YARATISH.....	49
3.1. Sanoat korxonalarini tashkil etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari.....	49
3.2. Xududlarda sanoat tarmoqlarida mehnatni tashkil etish orqali bandlikni ta'minlash.....	57
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	67
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	69

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillik davrdan to hozirga qadar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida muhim o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Korxonalarda mehnatni tashkil etish va uning samaradorligini oshirish yo'llari muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xalq turmush farovonligini oshirish Respublikamiz Prezidenti tomonidan belgilab berilgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadidir. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etish kunda keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimini topishni taqozo qiladi. Ma'lumki, xalq xo'jaligi ishlab chiqarishda, turli sohalar va jamiyat qatlamlarida, ish joylarida korxonalar ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, tashkil etis, moddiy texnika bazasini mustahkamlash taraqqiyotni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Sanoat korxonalarning ijtimoiy-iqtisodiy o'shishini jadallashtirish muammolarini hal qilish iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy boshqaruvni tubdan qayta ko'rish asosida amalga oshiriladi. Shunga muvofiq ravishda xo'jalik faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarning ahamiyati ortadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlar natijasida mehnat unumdorligining o'sishi, mehnat mazmunidagi chuqur o'zgarishlar, qo'l mehnati tarqalgan sohalarning sezilarli kamayishi va inson omiliga yangicha yondashuv masalalari bilan bog'liq bo'lgan mehnatni tashkil etish tizimini tadqiq etish, ayniqsa, muhimdir.

Fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida ishchi xodimlarning ilmiy va kasbiy tayyorgarligi, ularning mehnat va ijtimoiy faoligiga bo'lgan talablar keskin ortadi. Bugungi kunda asosiy e'tibor qishloq joylarida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasiga qarash muammosi yotadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ma'ruzasida 2015 yilda mamlakatimizda 980 mingdan ortiq yangi ish o'rini tashkil qilingan bo'lsa, shuning 60 foizdan ziyoti qishloq joylarida yaratilganligini takidlab o'tdi.

Yuqorida aytilgan fikrlarning barchasi xududlarda sanoatni tashkil etish, uning samaradorligini oshirish kompleks tadqiq qilishning alohida ahamiyatini ifodalaydi. Mazkur tadqiqot ishi mavzusini tanlashga turtki bo'ldi.

Mavzuning o'rganish darajasi. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va mehnat samaradorligi, mehnat resurlaridan foydalanish, mehnatga haq to'lash tizimlari kichik biznesni rivojlantirish muammolarini o'rganishga: J.M.Kens, A.Osvoid, X.Rozan, J.Rudebsh, F.Xayek kabi xorijiy yetakchi iqtisodchi olimlarning qator ilmiy ishlari bag'ishlangan. Ushbu masalalarni o'rganishda MDH davlatlari olimlaridan Kostikov.G', Sergiyeva T.R., Shuxmen A.G., Volgin N.A., Kostin L.A., Ulinsev I.I., Maslova L.S. lar munosib hissa qo'shganlar. Bu yo'nalishdagi muammolarni o'rganishda O'zbekistonlik olmlardan Abduraxmonov Q.G', Shodiyeva R.X., Ubaydullayeva R.A., Xolmo'minov Sh.R., Bozorov N.B., Xudoyberdiyev Z, Saidov K.S., Ortiqov O. va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bu ilmiy izlanishlar qishloq joylarida sanoatni rivojlantirish yetarlicha yoritib berilgan. Bu muammolarning iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ahamiyatliligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi uning maqsadi asosiy vazifalari to'g'ri aniqlashga imkon beradi.

Bitiruv ishining maqsadi. Bitiruv ishining asosiy maqsadi sanoat korxonalarini rekonstruksiya va kengaytirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishining asosiy vazifalari. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi asosiy vazifa belgilab olingan:

- Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida sanoat korxonalarini o'rganish;
- Hududlarda sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashtirishda holatini tahlil etish;
- Sanoatni rivojlantirish orqali mahsulot eksport holatini tahlil qilish;
- Sanoat korxonalarini tashkil etish orqali bandlikni ta'minlash holatini aniqlash.

Tadqiqot ob'yekti sifatida Samarqand viloyati sanoat korxonalari tanlab olingan.

Tadqiqot metodlari tadqiqot jarayonida abstract-mantiqiy fikrlash, iqtisodiy-statistika, tahlil, guruhlash, tizimli tahlil, tizimli yondashuv, prognozlash va boshqa uslublar qo'llanilgan.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi, Davlat Statistika qo'mitasi va ularning Samarqand viloyat boshqarmasi ma'lumotlari, Samarqand viloyati mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi.

Himoyaga olib chiqadigan asosiy holatlar:

- Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirish sharoitida sanoat korxonalarida ish o'rinlari tashkil etish holati bayon qilingan.

- Sanoat korxonalarni tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish manbalari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

- Samarqand viloyati bo'yicha sanoatda biznesni tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari. Ushbu tadqiqot ishida ko'rilayotgan masalaga yangicha yechimlar keltirilgan bo'lib bular quyidagilardan iborat:

- Ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va qayta rekonstruksiya qilish orqali Samarqand viloyati iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini o'rganilgan;

- Samarqand viloyati tumanlari miqyosida tashkil etilgan kichik korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar berish.

Bitiruv ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy izlanish nazariyalarida ishlab chiqilgan mulohazalardan qo'llanilgan metodologik yondashuvlar va usullardan boshqa tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalarini unda ishlab chiqilgan takliflarda Samarqand viloyatda sanoat korxonalari bilan oilaviy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish asosida, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish bo'yicha mintaqaviy dastur ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining qo'llash. Tadqiqot natijalari Samarqand viloyat tadbirkorlik palatasi faoliyatida qo'llash mumkin.

I-BOB. SANOAT KORXONALARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Milliy iqtisodiyotini etakchi taramqlarini modernizatsiyalashtirishda t korxonalarining roli

O'zbekiston iqtisodiyotning etakchi taramqlarini modernizatsiya qilish hisobiga sanoat ulushini oshirish mahalliy xom-ashyo resurslaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish.

Mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi ushbu vazifalarni amalga oshirishida korxonalarga katta etibor qartilmoqda, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, alohida xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondiradilar.

Sanoat korxonasi ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh bo'g'ini bo'lib, unda ilmiy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy masalalarni hal etiladi.

Mahsulotlar yaratish va xizmat ko'rsatish muayyan texnologik jarayonlar, mehnat materiallari, odamlarning bilimi va ko'nikmalari ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashga asoslangan holda mustaqil amalga oshiriladigan tizimga aytiladi.

Korxonada ish o'rinlarini yaratish ish haqi to'laydi, soliqlar to'lash yo'li bilan davlat va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda qatnashadigan ob'ektdir.

Aynan korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari va ishchini ishlab chiqarish vositalari bilan o'zaro aloqasini amalga oshiriladi.

Sanoat korxonasi o'z faoliyatini o'zi boshqaradi, ishlab chiqarilgan mahsulotni olingan sof foydani soliq va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan qismini tasarrf etadi.

Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va assortimenti, xilma-xilligi, xom ashyo yetkazib beruvchilar va xaridorlar baholarini shakllantirish, resurslardan tejimli foydalanish, kadrlarni qo'llash, yuqori unumli texnika va texnologiyadan foydalanish masalalari hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, korxona bu - huquqi shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'yekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.

Korxona - ijtimoiy talablarni qondiruvchi va sof foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi iqtisodiyot subyektidir.

Har bir mamlakat sanoatning quvvati hamda fan-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotni modernizatsiyalash ko'rsatkichlarini birinchi o'rinda yirik korxonalar belgilab beradi. Shu sababli "kichik" iqtisodiyotni rivojlantirish, ya'ni kichik va xususiy korxona hamda mikrofirmalarga keng yo'l ochib berishda yirish korxonalarning o'rnini va rolini unutmaslik darkor. Chunki bu korxonalarda ishlovchi xodimlar soni katta bo'lishdan tashqari, fan-texnika yutuqlarini hayotga tadbiq etish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mehnatni rag'batlantirish hamda do'stona, sherikchilik aloqalarini (jumladan, xorijiy korxona va firmalar bilan) rivojlantirishga keng imkoniyatlar mavjud. Shu sababli yirik, o'rta va kichik korxonaarning optimalligi jamoatchilik ishlab chiqarishi talablari va milliy iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollariidan kelib chiqqan holda fan va xo'jalik amaliyotining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani iqtisodiyotning har bir tarmog'ida va sohasida hal qilishning yo'llari o'xshash bo'lmasligi yoki bir xil tavsifga ega bo'lmasligi mumkin. Har bir alohida yuzaga kelgan iqtisodiy holatda mavjud sharoitlar va rivojlanish afzalliklariga mos holda harakat qilish zarur.

Milliy iqtisodiyotda sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy va etakchi tarmog'idir. Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqei ko'tarilishiga olib keladi. Mustaqillik davrida jamiyatni tarixiy jihatdan yangilashda ishchilarning avangardlik roli to'g'risida gap yuritilgan ekan, faqat ishchilar sinfigina mehnatkashlar ommasining birlashuviga, jipslashuviga va istiqlolni himoya qilishga, mustahkamlashga va uni uzil-kesil ta'minlashga yordam bera oladi, deyish mumkin. Ana shu fikrni O'zbekiston

voqe'ligi kun sayin tasdiqlamoqda. O'zbekiston ishchisi respublika yalpi ijtimoiy mahsulotining, milliy daromadning asosiy qismini bunyod etmoqda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishda faol ishtirok etayotir.

O'zbekiston respublikasi ishchilari qiyofasida ham barcha rivojlangan mamlakatlar ishchilaridagidek, ongli industrial mehnatkashning va insonlar munosabatining yuksak normalari va umuminsoniy tamoyillarini, qadriyatlarini qaror toptiruvchi, yangi hayot uchun ilg'or kurashchi hislatlari bir butun bo'lib mujassamlashgan.

Sanoat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy darajasining o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasining tinmay oshib borishidir.

O'zbekiston mehnatkashlarining bilim va ko'nikmasi, ishlab chiqarish malakasi va mahorati, madaniy va ma'rifiy saviyasini yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda ham sanoatning yuqori o'rin tutishini ko'rish mumkin.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy bazasi, el-yurtda tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo'shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlati mudofaasini kafolatlashda sanoatning roli bebahodir.

Sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o'z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Xududlarda sanoat, ayniqsa engil sanoat butun ijtimoiy ishlab chiqarishni idustriashtirish muammolarini hal etish kalitidir. SHu sababli jamiyatning moddiy-texnika bazasini qaytadan qurish ishini o'zbek halqi Prezident rahbarligida umuman sanoat, xususan, uning eng muhim sohalarini rivojlantirishdan boshladi. CHunki bu sohalar O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy qudratini, xalq

farovonligini yanada oshirishning poydevori bo'lib hisoblanar edi, bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.

Mehnatni ijtimoiy tashkil etishning eng oliy turi – konsentratsiyaning yuqori darajasi bilan kichik biznes va tadbirkorlikni uyg'unlashtirish asosida ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg'or usullari-ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish ham sanoat sohasida hukmronlik qiladi va yaxshi samaralar beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – bu raqobat, ya'ni bellashuv, raqiblar kurashi ham sanoat sohasida rivoj topadi. Ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko'tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash asosida uning samaradorligini ko'tarish uchun harakat va boshqa mehnat an'analari ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va kelmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari va Davlatning iqtisodiy siyosati sanoatning etakchi o'rnini yanada oshirmoqda. Islohotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning echimini topish dastavval sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va yaxshi samara bermoqda.

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik etakchi tarmog'i bo'lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi. Unda mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, er osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi hamda keng iste'mol mollari tayyorlanadi. Sanoat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa,

davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'лади va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning etakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilim va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi. Mehnatni ijtimoiy tashkil qilishning eng oliy turi, konsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg'or usullari – ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish, ko'plab ishlab chiqarish va uzluksiz potok sistemasi yordami bilan tashkil etish sanoat sohasida hukmronlik qiladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnikaning barcha yutuqlarini o'zida to'plab, mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va uning unumdorligini yuqori darajaga ko'tarishi mumkin.

Sanoat va ayniqsa uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib boradi. Bugungi kunda sanoat va uning tarmoqlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali sanoat dehqon xo'jaligini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutni yo'qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlatining mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashda sanoatning roli muhimdir.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan hamkorligi sanoat sohasida ham o'z ifodasini topadi. Davlatlarning tabiiy, mehnat resurslaridan, ilm-fan va texnikaning barcha

yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishida sanoatning ahamiyati salmoqlidir.

Sanoat uchun uzluksiz fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishining o'sishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish hamda ximiyalashtirish sohasidagi ilg'or yutuqlardan keng foydalaniladi va ularning yutuqlarini tinchlik maqsadida qo'llaniladi.

Sanoat, ayniqsa uning ustuvor sohalari butun ishlab chiqarishni globallashtirish muammolarini hal etishning kalitidir.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo'lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan bir moddiy negizi bo'lishi mumkin. Mamlakat aholisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyosdir. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan bilib olish mumkin.

O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 14 foizi sanoat ishlab chiqarish hissasiga to'g'ri keladi. SHuni ta'kidlash kerakki, kelajakda respublika sanoatining jadal sur'atlar bilan ta'minlanishi yanada yaxshilanib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, ya'ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi. Jamiyatning etakchi, bunyodkor, qudratli kuchi bo'lgan kadr (xodim)larning anchagina qismi sanoatda xizmat qiladi. Bu tarmoqning yanada ulkan rivoji sanoat kadrlari sonining oshishiga va ularning jamiyatdagi mavqeini ko'tarishga olib keladi. Jamiyat taraqqiyotining muo'im qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy – texnik saviyasi o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasini tinmay oshib borishidir.

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – raqobat ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Tadbirkorlar, ishbilarmonlar bellashuvning bayroqdori bo'lib maydonga chiqdilar. Respublika sanoatida ham raqobat o'zining oddiy bosqichidan eng yuqori bosqichiga ko'tarilib, chinakam umumiy dastakka aylanmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari va davlat iqtisodiy siyosatining etakchilik rolini yanada oshirmoqda. Oliy Majlisning qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va sezilarli samara bermoqda.

1.1-jadval

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>ming birlik</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>	<i>ming birlik</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
O'zbekiston Respublikasi	300,2	100,0	285,5	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,4	4,8	13,7	4,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	26,0	8,7	24,6	8,6
Buxoro	16,5	5,5	15,6	5,4
Jizzax	12,8	4,3	12,0	4,2
Qashqadaryo	19,2	6,4	18,5	6,5
Navoiy	9,8	3,2	9,5	3,3
Namangan	21,0	7,0	19,9	7,0
Samarqand	22,5	7,5	21,1	7,4
Surxondaryo	14,4	4,8	13,7	4,8
Sirdaryo	10,1	3,4	9,4	3,3
Toshkent	30,8	10,2	26,9	9,4
Farg'ona	26,0	8,7	25,6	9,0
Xorazm	14,3	4,7	13,7	4,8
Toshkent sh.	62,4	20,8	61,3	21,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi. Toshkent 2018 yil.

Bizga ma'lumki bugungi kunda mamlakatimizda yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra 2018 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 300,2 mingtaga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 285,5 mingtani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 95,1 % ini tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (20,8 %), Toshkent (10,2 %), Farg'ona va Andijon (8,7 %) viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 22,4 %), sanoat (17,1 %), qurilish (8,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (7,5 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Sanoat korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to'g'ridan- to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlasa, butun iqtisodiyotning, jumladan, ularning o'zlarining ham ko'rsatgichlari yuqori bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil va rentabellikning yuqori ko'rsatgichlarni erishishga keng imkoniyatlar yaratdi, deb hisoblanadi. Balki haqiqatdan ham shundaydir. Biroq korxona ayniqsa, davlatga tegishli bo'lgan korxona qanday ishlashi, uning jamiyatga keltiruvchi foydasi, rentabellik darajasi, xodimlarning bandligi qanday bo'lishi faqat korxonalarga katta imkoniyatlar yaratib berish bilan birga ulami belgilangan tartibda nazorat qilib ham boradi. Davlat korxonalar "taqdiriga", ularning ishlab chiqarish faoliyati yakuniy natijalarga befarq qarab tura olmaydi. Bankrotga uchragan korxonalar, zarar keltiruvchi ishlab chiqarish, iqtisodiy nochorlik- bularning barchasi korxona jamoasi uchun ham, davlat uchun ham og'ir yuk hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida barsha korxonalar ham raqobatchilikni yebgib, samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda olamaydi. Natijada minglab korxonalar tashkil qilinib,

xo'jalik faoliyati doirasiga qo'shiladi va deyarli shunchasi turli sabablarga ko'ra tugatiladi.

Shu sababli bankrot korxonalarning tugatilishi bozor iqtisodiyot sharoitida odatiy hoi bo'lib, bu ahvolga tushub qolishdan ehtiyot bo'lish kerak bo'lsada, lekin bundan fojea ham yasash kerak emas. Tadbirkorlarni oldiga turgan asosiy vazifa korxonani bankrot bo'lishiga olib kelmaslik, uning iqtisodiy mustaqilligi, mehnat qobiliyati va daromadligi milliy iqtisodiyotga qo'shiladigan hissa bo'lishidan tashqari respublikamizda tobora ko'payib borayotgan aholini ish bilan ta'minlash ham ahamiyat kasb etishini unutmaslik muhim. Ko'rinib turibdiki, istalgan korxonaning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, olingan foyda yoki daromad miqdoridan tashqari bu korxonaning aholini ish bilan ta'minlashdagi ishtirokiga ham bog'liq bo'ladi. Aholini ish bilan ta'minlar ekan, korxonalar o'zlarining bevosita ishlab chiqarish funksiyalarini bajarishdan tashqari ishsizlikning kamayishiga, ya'ni mehnat faolligining ortishi va ijtimoiy ahvolning yaxshilanishiga ham sababchi bo'ladi.

Bu yerda hamma narsa faqat korxonaning o'ziga bog'liq emasligi ko'rinib turibdi, albatta. Chunki korxona o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida xom ashyo, material, asbob-uskuna va boshqa ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchi yoki mahsulot iste'molchilari sifatida harakat qiluvchi boshqa korxonalar bilan o'zaro aloqaga kirishadi. Bu munosabatlarda har bir kamchilik va nuqsonlar, jumladan xom ashyo, material va asbob-uskunalar o'z vaqtida yetkazib bermaslik, o'z vaqtida haq to'lmaslik, qarzlarni to'lash muddatlarining o'tkazib yuborilishi va boshqa xo'jalik yuritish qoidalari va majburiyatlarining o'tkazib yuborishi va boshqa yuritish qoidalari va majburiyatlarining buzilishi korxona iqtisodiy ahvolning yomonlashishiga, uning nochorlikka uchrashiga olib keladi. Shu sababli korxonalar faoliyatini samarali va yuqori rentabelli darajada amalga oshirish zaruriyati, barcha korxonalar ishlab chiqarishni kerakli tarzda tashkil qilish hamda o'z hamkorlari va davlat oldidagi majburiyatlarni qat'iy tarzda bajarish intizomi bilan uzviy bog'liqdir.

Sanoat tarmoqlarida ko'plab kichik, mikro va yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini - og'ir sanoatdan yengil sanoatgacha, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan ilmiy ishlab chiqarishgacha qamrab olgan. Ular o'z faoliyatida ishlab chiqarishning barcha omillaridan - yer, tabiiy va mehnat resurslari, texnika va texnologiyalar, investitsiyalar, hozirgi zamon fani tomonidan ishlab chiqarishning asosi yoki mamlakatnirig milliy boyligi deb ataluvchi zamonaviy axborot tizimidan foydalanadi. Ma'lumki, boylik yoki salohiyat bir nechta avlod va butun jamiyatning xatti-harakati evaziga yaratiladi. Korxonalarining vazifasi ushbu boylikni asrab-avaylash va undan samarali foydalanishda ifodalanadi.

Zamonaviy korxona-mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yekt bo'lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek davlatning o'zigagina tegishli bo'lmaydi. Shu sababli korxonalar mulkchilik shakliga ko'ra, davlat va nodavlat, tarmoq belgilarga ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va hokazolar, ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga ko'ra, yirik, mikroflrma va kichik, faoliyat yuritish muddatiga ko'ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalarga bo'linadi.

Biroq ushbu belgilardan qat'iy nazar, deyarli har bir korxona Nizom asosida faoliyat yuridadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organning nomi, Nizom jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxona rahbariyatning lavozimlari, rahbar shaxslarnig majburiyatlari, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokazolar korsatilgan bo'ladi.

Agar Nizomda korxonaning tashkiliy-huquqiy funksiyalari belgilangan bo'lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fondler, pul mablag'lari va boshqa aktivlar kiruvchi Nizom jamg'armasiga tayanadi. Nizom jamg'armasi qonunga asosan korxonani tashkil qilish jarayonida muassislar - davlar, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan shakllantiriladi. Korxona rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayib borishi, daromad hajmi va boshqa moliyaviy tushumlarning ortishi natijasida Nizom jamg'armasi

ko'paytirilishi mumkin. Umuman olganda, Nizom jamg'armasi korxonaning iqtisodiy iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy jihatdan baquvvatligini aks ettiradi.

Amaldagi qonunchilikka asosan korxona davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina huquqiy shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina huquqiy shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun birinchi o'rinda quyidagi hujjatlar ahamiyatga ega bo'ladi: muassisning arizasi; korxonaning Nizomi; korxonani tashkil qilish haqida qaror yoki muassislarning shartnomasi; davlat bojini to'laganlik haqida kvitansiya va boshqalar.

Sanaot korxonalari ham boshqa korxonalar kabi korxona o'ziga xos bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega:

Birinchidan, korxona o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchliligini ta'minlaydi;

Ikkinchidan, korxona kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki, bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;

Uchinchidan, korxona xo'jalik aylanmasida o'z harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yuritvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xom ashy ova asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

To'rtinchidan, korxona qonunchilikka sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

Beshinchidan, korxona mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

Oltinchidan, korxona o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

Har bir korxonaning faoliyati ishlab chiqarish, qayta ishlab va muamala jarayonlaridan iborat bo'ladi. Korxonaning ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati - yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash va ishlab chiqarishni

tashkillashtirishda namoyon bo'ladi. Qayta ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat -- ishchi kuchini yollash, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va kengaytirish jarayonlarida aks etadi. Muomala sohasidagi faoliyat esa ishlab chiqarishning moddiy-texnika ta'minotini tashkillashtirish, mahsulot (ish, xizmat)larni sotish va foydalanilgan ishlab chiqarish vositalarining daromad shaklida qaytib kelishida ko'zda ko'rinadi.

Korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tabqiq etishda uni tashkil qiluvchi ikkita tarkibiy qismning o'zi (korxona) va ushbu tizim faoliyat yurituvchi tashqi muhitni ko'rib chiqish lozim. Korxonaning ichki muhiti ishlab chiqarish vositalari, pul mablag'lari, axborotlar va inson resurslaridan tashkil topadi.

Ichki muhitning o'zaro aloqalari tayyor mahsulot paydo bo'ladi, ishlar bajariladi va xizmat ko'rsatiladi, ya'ni to'g'ri yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish va mehnatga haq to'lash faoliyati yuzaga keladi.

Korxonalarning tashqi muhit bilan aloqasi ularning tashqi tizimga chiqishida ro'y berib (resurslarni jalb qilish, ularning qiymatini aniqlash, xom ashyo, material va yoqilg'ining o'z vaqtida yetkazib turilishi va hokazo), tashqi muhitga ishlab chiqarilgan Tovar va xizmatlar oqimi yordamida ta'sif ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi.

Sanoat korxonalar faoliyati samaradorligini aniqlab beruvchi tasgqi muhit - bu, birinchi o'rinda mahsulot iste'molchilari, xom ashy ova boshqa material yetkazib beruvchilar, shuningdek davlat organlari hamda korxonaga yaqin joyda yashovchi aholi hisoblanadi.

Ma'lumki, totalitar-rejali tuzimida mulk davlatlashgan bo'lib, aholi mulkdan yiroqlashgan, davlatga qarab bo'lib, u bergan daromad bilan cheklangan edi. Qishloq oilalari daromadining yagona manbai tomarqa xo'jaligi bo'lgan, xolos. Ishchi va xizmatchilar oilalarining daromadlari esa, asosan davlat mulkiga asoslangan korxona va tashkilotlarida qilgan mehnati xisobiga shakllangan.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash unumdorlik va raqobatbardoshlikni oshirish, mahsulot turlarini ko'paytirish, tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, qo'shimcha ish o'rinlari yaratishning garovi hamdir.

O'zbekistonning mustaqillikka erishish milliy iqtisodiyotda miqdor va sifat o'zgarishlariga sabab bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti jamiyati demokratiyalashtirish, iqtisodiyot salohiyatlarini mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga yo'naltirilgan, bozor munosabatlari malakatimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan modeli asosida rivojlanib bormoqda. Bu model O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni islohot qilishning beshta muhim tamoyiliga asoslangan hamda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'yektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan.

Ishlab chiqarish qurilish uchun mo'ljallanayotgan jami investitsiyalarning qariyb to'rt dan uch qismini yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun yo'naltirishga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va zmonaviy sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayoni, uni tashkil etuvchi sub'yektlar iqtisodiy faoliyatlari moddiy bazasining rivojlanishi bilan bog'liq, chunki moddiy resurslardan samarali foydalanish har qanday iqtisodiy o'sishning sharti va bosh omili hisoblanadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinadigan ushbu vazifalarning amalga oshirilishida sanoat muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish buguni bo'lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondiradilar.

Har bir mamlakatning sanoat quvvati fan-texnika taraqqiyoti hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash ko'rsatkichlarini birinchi o'rinda yirik sanoat korxonalari belgilab beradi. Yirik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni katta bo'lishdan tashqari, fan-texnika yutuqlarini hayotga tatbiq etish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mehnatni rag'batlantirish hamda do'stona, sherikchilik aloqalarini (jumladan, xorijiy korxona va firmalar bilan) rivojlantirishga keng imkoniyatlar mavjud. Shu sababli yirik va kichik korxonalarning optimalligi jamoatchilik ishlab chiqarishi talabalari va milliy iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollariidan kelib chiqqan holda fan va xo'jalik amaliyotining eng muhim

vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani iqtisodiyotning har bir tarmog'i va sohasida hal qilishning yo'llari o'xshash bo'lmasligi yoki bir xil tavsifga ega bo'lmasligi mumkin. Har bir alohida yuzaga kelgan iqtisodiy holatda mavjud sharoitlar va rivojlanish afzalliklariga mos holda harakat qilish zarur.

Mamlakatimizda ko'plab yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini og'ir sanoatdan, yengil sanoatgacha, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan ilmiy ishlab chiqarishgacha qamrab olgan.

Korxonalarning faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to'g'ridan – to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlashsa, butun iqtisodiyotning, jumladan, ularning o'zlarining ham ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil etdi va rentabellikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan, korxonalar mulk egasi (egalari) yoki u (ular) tayinlangan vakillik organi, mehnat jamoa yoki muassislar guruhining qarori bo'yicha belgilangan qonun-qoidalarga asosan tashkil qilinishi mumkin.

Shuningdek, korxonalar agar korxona mulki egasi yoki u tayinlangan vakillik organining roziligi bo'lsa, faoliyat yuritayotgan korxona tarkibidan bir yoki bir nechta tarkibiy bo'linmalarni, ushbu bo'linmalarning mehnat jamoalari tashabbusiga ko'ra, ajralib chiqarish natijasida ham tashkil topishi mumkin.

Korxona joriy va hisob-kitob raqamlari ochish va ular to'g'risidagi holatlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, mustaqil huquqiy shaxs maqomidagi sho'ba korxonalari, filiallar, vakolatxonalar, bo'lim va boshqa tashkiliy bo'linmalarni tashkiliy bo'linmalarni tashkil qilishi mumkin.

Korxona qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda maxsus davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Korxonalarning eng muhim xususiyatlari ularning qaysi tarmoqqa qarashliligi; hajmi; ishlab chiqarishning turli jabhalarini qamrab olganligi; ixtisoslashtirish darajasi va bir tipdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish miqyosi; ishlab chiqarishni tashkillashtirish usuli hamda uni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish; tashkiliy-huquqiy shakllarini prognozlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi kunda bevosita xorijiy investitsiyalarga bo'lgan talab taklifga nisbatan yuqoridir. Bizga ma'lumki, bevosita xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish, ishlab chiqarishni zamonaviy, ilg'or uskuna, texnologiya bilan qurollantirish "nou-xou" va malakali ishchi kuchiga ega bo'lish, ish tajribasini o'rganish, shuningdek, mahalliy bozorni kamyob sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga yaqinlashtirish imkoniyatlarini beradi.

Hozirda respublikamizda mavjud sharoitlarni hisobga oladigan bo'lsak, albatta, xorijiy sarmoyaning kiritilishi o'zining ijobiyligini ko'rsatadi. Chunki, mamlakatni sobiq xom-ashyo bazasidan rivojlangan industrial davlatga aylantirish yirik miqdordagi moliyaviy mablag'larni talab etadi. Bu esa, respublikaning ichki moliyaviy imkoniyati bilan amalga oshiriladigan faoliyat emasdir. Agar O'zbekiston Respublikassining so'ngi yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyati tarkibini tahlil etsak, respublika eksportida asosiy salmog'ini xom-ashyo va materiallar, jumladan, energiya resurslari, qora va rangli metallar, paxta tolasi, mineral o'g'itlar tashkil etadi. Import tarkibida esa, oziq-ovqat va ularning ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom-ashyolar asosiy salmoqni egallaydi.

Respublika tarkibida xom—ashyolar, import tarkibida esa oziq-ovqat mahsulotlari katta salmoqni egallab kelmoqda. Respublikaning iqtisodiy mustaqilligini to'la ta'minlashni bu tarkibidagi tashqi iqtisodiy faoliyat doirasida amalga oshirish juda murakkab ish hisoblanadi. Respublikaning mavjud bor imkoniyatlari chet elga xom-ashyo emas, balki tayyor mahsulotlarni eksport qilishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham bugungi kunda qayta ishlovchi sanoatni barpo etilmoqda va rivojlantirmoqda. Bu, albatta, o'z navbatida, yirik miqdordagi investitsiyalarni talab etmoqda.

Oxirgi yillar hukumatimiz tomonidan chifarilayotgan qarorlar xorijiy investitsiyalarni ro'yxatdan o'tkazishni engillashtirishga qaratilmoqda. Moliyaviy soha va fond bozorining hozirgi davrda zaif rivojlanganligi yuqori darajadagi risqlarga olib keladi.

Yana bir muammo, bu tadbirkorlarning chet tillarga erkin so'zlasha olmasliklari, internet tarmoqlari orqali chet el hamkorlari bilan muloqat qila olmasliklaridir, bu ham arziyas masaladek ko'rinsada muammolarni keltirib chiqarmoqda. Chet el investitsiyalaridan samarali foydalanish borasida asosiy muammo mamlakatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar etarli bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish jarayoniga bevosita chet el investitsiyalarini oqilona jalb etilmayotganligi hisoblanadi. Chet el investitsiyalarini jalb qilish jarayonida lizing kompaniyalari hamda tijorat banklari muhim rol o'ynaydi, shunday ekan tijorat banklari oldiga Markaziy Bank tomonidan joriy etilgan limitlarni olib tashlash yoki Tijorat Banklari qoshida lizing korxonalarini tashkil etish lozim.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning chet el investitsiyalarini jalb etish-bu nafaqat xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, ayni paytada-bu avvalo yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish, shu asosda ishlab chiqariladigan mahsulotlarimizning yuksak sifatini ta'minlashga qaratilgan. Eng muhim, chetdan imtiyozli sarmoyalarni olib kelish - bu pirovard natijada mamlakatimizda raqobatga bardoshli, kuchli iqtisodiyotni barpo etish va jahon bozorida o'z munosib o'rnimizni egallashga qodir bo'lish demakdir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

2016-yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 7

milliard 400 million dollarga teng bo'lgan 158 ta yirik obyekt foydalanishga topshirildi.

Resublikamizda o'tgan 2016 yilda mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi qo'yidagi 1.2-jadvalga aks ettirilgan.

1.2-jadval

O'zbekiston bo'yicha jalb etilgan investitsiyalar haqida ma'lumot
(foiz hisobotidan, mulkchilik shakllari bo'yicha)

	Jami	Davlat	Nodavlat
Jami investitsiyalar, mlrd.so'm	40737,3	7155,7	33581,6
Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:			
Davlat byudjeti mablag'lari	4,8	24,3	0,7
Davlat maqsadli fondlari mablag'lari	6,1	34,7	0,0
Korxonalar va aholi mablag'lari	52,1	21,2	58,7
Chet el investitsiyalari va kreditlari	20,1	13,5	21,5
Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	4,6	0,8	5,4
Bolalar sportini rivojlantirish foizda mablag'lari	0,6	3,4	0.0

Manba: O'zbekiston Respublikasining statistik ahborotnomasi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki Davlat byudjeti hisobidan jami investitsiyalarni 24,3 foizi Davlat 0,7 foizi nodavlat korxonalari ulushiga teng. CHet el investitsiyalari va kreditlarining hisobidan 13,5 foizi Davlat korxonalari, 21.5 foizi nodavlat korxonalariga berilgandir.

Investitsiyalardan (kapital o'oyilmalardan) foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- yangi qurilish;
- korxonani kengaytirish va qayta tiklash;
- ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta qurollashtirish;
- harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish.

Yangi qurilishga yangi maydonlarda maxsus ishlab chiqilgan loyihalar asosida o'uriluvchi korxona, bino, inshoot va qurilmalar mansubdir.

Faoliyat yuritadigan korxonani kengaytirish qo'shimcha ishlab chiqarish majmualarining navbatdagi qismlarini yangi loyiha asosida qurish yoki asosiy, qo'shimcha, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishning amaldagi sexlarini kengaytirish yoki qurishni anglatadi. U asosan, faoliyat yuritayotgan korxona hududida yoki unga tutash maydonlarda amalga oshiriladi.

Qayta tiklash – bu, faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yoqotish yo'li bilan almashtirish rdamida to'liq yoki qisman o'zgartirishni anglatadi. Qayta tiklashda eski sexlar o'rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Texnik qayta qurollantirish alohida chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnik va texnologiyalarni kiritish, ishla chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarishni tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasidir. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan.

Moliyaviy resurslar va er tanqisligi sharoitlarida, ikkinchi tomondan esa, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish uchun yangi qurilishni nisbatan cheklangan holatda, asosan juda zarur hollardagina amalga oshiriladi. SHu sababli bugungi kunda investitsiyalarning eng ko'p tarqalgan yo'nalishlari sifatida, umuman olganda yangi turdagi mahulot ishlab chiqarishni ham ko'zda tutuvchi mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishni ko'rsatish mursatish mumkin.

Yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta tiklashga yo'naltiriluvchi kapital qo'yilmalar asosan quy kapital qo'yilmalar asosan quy kapital qo'yilmalar asosan quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

- Qurilish –montaj ishlari xarajatlari;
- Mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar;
- Loyiha-qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar.

Kapital qo'yilmalarning yuqoridagi turlari investitsiyalarning texnologik tuzilmasini tavsiflaydi. Hozirgi paytda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan kapital qo'yilma hajmi ancha oshib, o'tgan yilga nisbatan ularning o'sish sur'atlari 109,3 foizni, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 24,5 foizni tashkil etish kutilmoqda.

Shuningdek xorijiy investitsiyalar va jalb qilinadigan kreditlar hajmi 16 foizga ko'payib, 3 milliard 300 million dollardan oshadi. Mazkur 2 milliard 300 million dollardan ortig'i yoki qariyb 70 foizini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning bo'lgan qiziqishi va ishonchi tobora ortib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Birinchi darajali e'tibor mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirishga qaratilishi lozim. Bu maqsadning dolzarbligi ahamiyati avvalo shu bilan belgilanadiki, biz o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotimizning rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishini hozirgi bosqichdagi bosh strategik vazifa sifatida qo'yilgandir.

O'z – o'zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilingan mamlakatimizda demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va barqarorlik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida ko'zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqida jiddiy so'z yuritish mumkin emas.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida etakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda

iqtisodiyotni izchil izloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishi ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan oshirilishi mumkin.

Bir sqsz bilan aytganda. 2011-2015 yillarda jami xorijiy investitsiya va kreditlar jami 18,6 milliard AQSH dollarni tashkil etishi va o'tgan besh yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. Ularning 75 foizdan ortig'ini to'g'ridan—to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Bu borada qarz mablag'lari uzoq muddatli asosda faqat ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish shuningdek, xorijiy moliyaviy institutlarning kredit liniyalarini mamlakatimiz tijorat banklari orqali qayta moliyalashtirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab—quvvatlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etiladi.

Sanoat korxonalarini barpo etish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun yo'naltirilgan.

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va zamonaviy sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayoni, uni tashkil etuvchi sub'ektlar iqtisodiy faoliyatlarini moddiy bazasining rivojlanishi bilan bog'liqdir, chunki moddiy resurslardan samaral foydalanish har qanday iqtisodiy o'sishning sharti va bosh omili hisoblanadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinadigan ushbu vazifalarning amalga oshirilishida sanoat muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish buguni bo'lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondiradilar.

Har bir mamlakat sanoatining ishlab chiqarish quvvati fan-texnika taraqqiti hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish ko'rsatkichlarini birinchi o'rinda yirik sanoat korxonalar belgilab beradi. Yirik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni katta bo'lishidan tashqari, fan-texnika yutuqlarini hayotga tatbiq etish, yuqori

sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mehnatni rag'batlantirish hamda do'stona, sherikchilik aloqalarini (jumladan, xorijiy korxona va firmalar bilan) rivojlantirishga keng imkoniyatlar mavjuddir. SHu sababli yirik va kichik korxonalarning optimalligi jamoatchilik ishlab chiqarish talablari va milliy iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollariidan kelib chiqqan holda fan va xo'jalik amaliyotining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani iqtisodiyotning har bir tarmog'i va sohasida hal qilishning yo'llari o'xshash bo'lmasligi yoki bir xil tavsifga ega bo'lmasligi mumkin. Har bir alohida yuzaga kelgan iqtisodiy holatda mavjud sharoitlar va rivojlanish afzalliklariga mos holda harakat qilish zarur.

1.2. Sanoat korxonalarini modernizatsiyalashtirishda kapital qo'yimlarni jalb etish holatini tahlili

Sanoat tarmoqlarida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar davlatga tegishli bo'lgan sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitlarida investitsiyalarning asosiy manbai davlat (byudjet) mablag'laridan tashkil topar edi. Garchi o'sha sharoitlarda ham jamg'arma fondlar - asosiy investitsion manbalar korxonalar foydasi (daromadi) hisobiga amalga oshirilgan bo'lsada, korxonalarning mablag'larni qaerdan olish va qaerga joylashtirish to'g'risida "boshi" og'rimas edi. Qo'shimcha manba sifatida korxonalarning amortizatsiya fondi xizmat qilardi.

Mazkur tushunchalar (jamg'arma fondi, amortizatsiya fondi, foyda) hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, investitsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, davlat korxonalari uchun asosiy investitsiya manbai quyidagilar: foyda, amortizatsiya fondi va byudjet mablag'lari, qo'shma korxonalar uchun - foyda, amortizatsiya fondi va kredit resurslari.

Buguni kunda sanoat va uni tarmoqlarini rivojlantirish dolzarb muammolarga aylanib bormoqda. Rejalashtirish va boshqaruv tizimida shuningdek, investitsiya manbalarini aniqlashning ichki va tashqi turlaridan ham

foydalaniladi. Bizga ma'lumki, investitsiyalarning ichki manabalariga quyidagilar kiradi:

- ishlab turgan asosiy kapitalga hisoblanuvchi amortizatsiya ajratmalari natijasida shakllanuvchi, korxonaning o'z moliyaviy vositalari;
- foydaning investitsiya ehtiyojlariga ajratiluvchi qismi;
- sug'urta kompaniyalari va muassasalari tomonidan tabiiy ofat va boshqa hodisalarda to'lanuvchi mablag'lar;
- korxonaning aksiyalar chiqarishi va sotishi natijasida olinuvchi mablag'lar;
- yuqori turuvchi va boshqa organlar tomonidan qaytarib bermaslik asosida ajratiluvchi mablag'lar;
- xayriya va shu kabi boshqa mablag'lar.

Investitsiyalarning tashqi manbalariga esa qo'yidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- markaziy va mahalliy byudjetdan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi turli xil fondlar tomonidan ajratiluvchi qaytarib bermaslik asosidagi mablag'lar;
- korxonalar Nizom jamg'armasida moliyaviy yoki boshqa moddiy va nomoddiy ishtirok shaklida, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va alohida shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalari shaklida kiritiluvchi xorijiy investitsiyalar;
- davlat va turli xil fondlar tomonidan qaytarib berish sharti bilan beriluvchi kreditlar, jumladan imtiyozli kreditlar.

Korxonalarning mustaqil xo'jalik faoliyati sharoitlarida ichki mablag'lar tarkibida amortizatsiya ajratmalari asosiy o'rinni egallaydi. Uning korxona investitsion resurslaridagi ulushi 50% va undan ko'proqni tashkil etadi.

Investitsion maqsadlarga yo'naltiriluvchi mablag'lar tanqisligi sharoitida lizing investitsion faoliyatni faollashtiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Investitsiyalardan (kapital qo'yilmalardan) foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- yangi qurilish;

- korxonani kengaytirish va qayta tiklash;
- ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish;
- harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish.

Biz tahlil o'tkazish jarayonida qo'yidagilarga e'tibor qaratishimiz lozimdir.

Yangi qurilishga yangi maydonlarda maxsus ishlab chiqilgan loyihalar asosida quriluvchi korxona, bino, inshoot va qurilmalar mansubdir.

Faoliyat yuritayotgan korxonani kengaytirish qo'shimcha ishlab chiqarish majmualarining navbatdagi qismlarini yangi loyiha asosida qurish yoki asosiy, qo'shimcha, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishning amaldagi tsexlarini kengaytirish yoki qurishni anglatadi. U asosan, faoliyat yuritayotgan korxona hududida yoki unga tutash maydonlarda amalga oshiriladi.

Qayta tiklash – bu, faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirishni anglatadi. Qayta tiklashda eski tsexlar o'rniga yangi tsexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Texnik qayta qurollantirish alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasidir. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan.¹

Kapital qo'yilmalarning yuqoridagi turlari investitsiyalarning texnologik tuzilmasini tavsiflaydi. Hozirgi paytda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga

¹ Махмудов Е.Х., Исаков.М.Ю., Модернизация-главное направление экономического и технического прорыва страны // Деловой партнёр . Узбекистан -2005


yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi ancha oshib, o'tgan yilga nisbatan ularning o'sish sur'atlari 9,5 foizni, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 18,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

1.3-jadval

2017 yil yanvar-dekabrida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimlanishi

	<i>Mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
Asosiy kapitalga investitsiyalar	60719,2	107,1	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	14975,0	119,2	24,7
byudjet mablag'lari	3367,9	126,6	5,5
Davlat maqsadli jamg'armalari	2333,2	82,4	3,9
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	184,4	49,8	0,3
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	5175,7	184,8	8,5
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	3913,8	100,3	6,5
Markazlashmagan investitsiyalar:	45744,2	103,7	75,3
korxona mablag'i	17882,7	98,9	29,4
aholi mablag'i	8790,8	84,5	14,5
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	12395,2	140,7	20,4
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	6675,5	100,9	11,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi. Toshkent 2018 yil.



1.2-rasm

Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi. Toshkent 2018 yil.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalar hisobidan 2016 yilga nisbatan 119,2 % yoki 14975,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmining 24,7 %i hamda o'tgan yil ko'rsatkichiga nisbatan 2,9 % punkt ko'p) o'zlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 45744,2 mlrd. so'm yoki 2016 yilga nisbatan 103,7 % (jami investitsiyalardagi ulushi 75,3 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Moliyaviy resurslar va er tanqisligi sharoitlarida, ikkinchi tomondan esa, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan unumliroq foydalanish uchun yangi qurilishni nisbatan cheklangan holatda, asosan juda zarur hollardagina amalga oshiriladi. Shu sababli bugungi kunda investitsiyalarning eng ko'p tarqalgan yo'nalishlari sifatida, umuman olganda yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishni ham ko'zda tutuvchi mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishni ko'rsatish mumkin.

Sanoat ishlab chiqarishida, yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta tiklashga yo'naltiriluvchi kapital qo'yilmalar asosan quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

- qurilish-montaj ishlari xarajatlari;

- mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar;
- loyiha–qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar.

O'z-o'zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va barqarorlik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida ko'zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqda jiddiy so'z yuritish mumkin emas.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishi ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan oshirilishi mumkin.

Samarqand viloyati va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012-2016 yillarda hisoblar bo'yicha ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yciha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, kapital qo'yilmalarning samarali tuzilmasi ularni tejash, eng xam xarajatlar bilan eng ko'p foyda olishga tengdir.

II-BOB. SANOAT KORXONALAR FAOLIYATINI TIKLASH VA YANGILARINI TASHKIL ETISH ORQALI BANDLIKNI TA'MINLASH HOLATINI TAHLILI

2.1. Samarqand viloyatida sanoatni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash holatini tahlili

O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni takomillashtirish hamda sanoat tarmoqlarining o'sishini ta'minlash pirovard maqsadlarimizdan biridir. Bugungi kunda O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga erishayotganligining o'zi ham mamlakatimizda iqtisodiy siyosatning to'g'ri yuritilayotganligidan dalolat beradi. Buni yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlardek: "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish zarurdir".

Masalan, 506 ta mulk kompleks tanlov asosida, investitsiya kiritish sharti bilan "nol" qiymatida yangi mulkdorlarga sotildi. Bu borada ana shu investitsiyalar qariyb 1 trillion so'm va 400 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish majburiyati olindi.

Sanoatda xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali ham mamlakatimiz sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga erishishimiz mumkin. Albatta, investitsiyalarni jalb etishda hududlar bo'yicha sanoat tarmoqlarining shakllanganligini va ushbu hududlarning iqtisodiy geografik joylashuvini ham hisobga olish zarur. SHuni hisobga olgan holda, mamlakatimizda ham aynan mana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. CHunki viloyatlardagi mavjud sanoat o'zining hududiy mujassamlashivi va ixtisoslashuviga ko'ra bir – biridan farq qiladi. Biroq, bunday tafovitlar uchun kuchli emas. Viloyatlar sanoatining tarmoqlar bo'yicha tahlili shundan dalolat beradiki, barcha hududlarda ko'proq engil va oziq-ovaqt sanoatlari nisbatan yaxshi rivojlangan. SHu bilan birga ayrim viloyatlarda tog'kon, kimyo, mashinasozlik va qurilish materiallari sanoati ham biroz taraqqiy etgan.

Chunonchi, rangli metallurgiya Navoiy, Toshkent va qisman Jizzax viloyatlarida, qora metallurgiya asosan Toshkent viloyatida, kimyo sanoati Toshkent, Navoiy va Fargʻona viloyatlarida mavjud. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati Toshkent, Andijon va qisman namangan hamda Samarqand viloyatlarida, qurilish materiallari Toshkent Fargʻona, Navoiy viloyatlarida rivojlangan. Engil sanoat tarmoqlari mamlakatning deyarli barcha viloyatlariga mansub soha hisoblanadi.

Uarning bunday taraqqilishi asosan xomashyo etrali darajadagi ishchi kuchi va isteʼmol omillari bilan izohlanadi. Ammo ushbu tarmoq oʻzining keng geografiasiga qaramay u koʻproq Fargʻona vodiysi viloyatlari hamda Toshkent va Samarqand viloyatlarida yaxshi rivojlangan, soʻnggi yillarda bu soha Qaraqalpogʻiston respublikasi, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida ham faol shakllanib kelmoqda. SHuningdek, oziq-ovqat sanoati ham mamlakatning barcha viloyatlarida mavjud.

Bogʻdorchilik, uzimchilik va sabzavot etishtirish negizida va aholi talabining oʻsib borishi taʼsirida ushbu sanoat tarmogʻi koʻpgina viloyat va tumanlarda tashkil etilgan.

Bugungi kunda kichik biznesni mamlakat eksportidagi ulushi ortib bormoqda.

Mahsulotlarni eksportdagi ulushi asosan agror sohada ishlab chiqarilgan mahsulotlardan iboratdir.

Bu agrar sektorda kichik tadbirkorlik korxonalarida band boʻlganlarning ulushi oshib borayotgan boʻlsada, ishga yaroqli aholining oʻsish darajasiga nisbatan past darajada ekanligini anglatadi. Bu esa agrosanoat majmuida kichik tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish zarurligini taqozo etadi.

Quyidagi 2.1-jadvalda Samarqand viloyati boʻyicha Kichik korxona va mikrfirmalarda band boʻlgan aholi soni va eksportdagi ulushi aks aks ettirilgan.

2.1-jadval

Samarqand viloyati tumanlar kesimida kichik biznes korxonalarining YAHM eksportidagi ulushi va band bo'lgan ishchilar soni aks etirilgan (foizda)

	Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulushi				Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi			
	Mehnatda band aholining umumiy sonidan		Eksportda		Mehnatda band aholining umumiy sonidan		Eksportda	
Jami	2014	2017	2014	2017	2014	2017	2014	2017
shaharlar:	83,2	83,6	79,4	86,1	18,0	17,9	78,5	86,4
Samarqand sh.	69,4	70,0	55,8	77,9	9,1	8,9	55,8	77,9
Kattaqo'rg'on sh.	72,4	73,2	7,5	7,7	10,2	9,9	7,5	7,7
tumanlar:								
Oqdaryo			100,0	100,0			100,0	100,0
Bulung'ur	88,0	88,2	100,0	100,0	33,3	33,1	100,0	100,0
Jomboy	89,2	89,5	32,9	52,7	22,2	22,2	32,9	52,7
Ishtixon	85,5	85,8	-	58,8	39,4	39,5	-	58,8
Kattaqo'rg'on	89,9	90,1	100,0	100,	19,7	19,8	100,0	100,0
Qo'shrabot	87,0	87,3	-	100	10,6	10,6	-	100
Payariq	83,8	84,1	-	100	5,8	5,6	-	100
Pastdarg'om	80,4	80,8	84,4	100,0	25,0	24,9	84,4	100,0
Paxtachi	93,9	94,0	100,0	100,0	37,9	38,0	100,0	100,0
Samarqand	79,9	80,4	81,0	100,0	19,7	19,4	81,0	100,0
Narpay	86,8	87,0	-	29,3	10,8	10,6	19,0	29,3
Nurobod	90,6	90,7	-	-	28,6	28,7	-	-
Tayloq	78,2	78,7	91,6	92,6	8,0	7,7	59,5	92,6
Urgut	89,7	90,1	100,0	100,0	20,7	20,7	100,0	100,0

Manba: Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumoti.

Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarini YAHM ulushi 2014 yilda 79,4 foizni tashkil etgan bo'lsa 2017 yilda bu ko'rsatkich-86,1 foizga o'sishga erishildi. Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi esa 2014 yilda 78,4 foiz, 2017 yilga kelib 86,1 foizni tashkil etgan.

Iqtisodiyotning strategik rivojlanishini belgilashda kichik tadbirkorlikka xos bo'lgan yangi ish o'rinlarini yaratish vazifasini bajarish jarayonida quyidagi muammolarga e'tibor berish lozim:

- tumanlarda tadbirkorlikka ko'maklashovchi bozor infratuzilmalari tashkilotlarining yetishmasligi yoki yuqori saviyada xizmat ko'rsatilmayotganligi;
- aholi bandligini ta'minlash, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish hududiy dasturlarda belgilangan asosiy parametrlarning bajarilmayotganligi;
- hududlarda faoliyat yuritmayotgan tadbirkorlik subyektlarning ko'pligi;
- mahalliy hokimiyat muassasalarining kichik biznes vakillari bilan o'zaro hamkorlikdagi aloqalari yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi;
- tadbirkorlik sub'yektlarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishlari uchun bino, yer ajratish, gaz, elektro energiya ta'minoti talabga javob bermasligi;
- joylarda tadbirkorlikka ko'maklashuvchi bozor infratuzilmalari tashkilotlarining yetishmasligi yoki yuqori saviyada xizmat ko'rsatilmayotganligi.

Tadbirkorlik rivojlanishini darajasining pirovardida kishilar turmush farovonligi yotadi. Kishilar turmush farovonligining o'sishi tadbirkorlik rivojlanishi darajasini belgilaydi. Shu jihatdan tadbirkorlikning rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarining o'sishi kishilar faoliyati bilan bog'liq.

Tadbirkorlikning rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarining hisoblashda hudud mehnat resurslarining tadbirkorlikka moyillik darajasini aniqlash muhim. Chunki, iqtisodiy faol aholi iqtisodiy munosabatlarda qatnashish jarayonida jismoniy va aqliy imkoniyatlarini ishga soladi.

Jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilarning aksariyati ish bajaruvchi hisoblanadi. Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarni esa ikki toifaga tavakkalchilikka moyil va tavakallichilikka moyil bo'lmagan kishilarga ajratish mumkin. Tavakallichilikka moyil bo'lmagan kishilarga davlat korxonalariga ishlovchilar, ilmiy tadqiqot, texnik konstruktorlik ishlari bilan shug'ullanuvchilar kiradi, tavakalchilikka moyil bo'lgan kishilar esa tovar ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'yektlarning ta'sischilari va ularning sheriklaridan iborat. Tavakkalchilikka moyil bo'lgan ushbu guruh ijodiy

fikrlash, yaratuvchanlik tashkilotchilik qobiliyati orqali o'z mulki va sheriklarining mulkini harakatga keltirib, ma'lum natijaga erishish uchun tavakkal qiladilar. Bunday kishilarga tadbirkorlikka moyil kishilar va hududning harakatchan mehnat resurslari sifatida qarashimiz mumkin. Shundan kelib chiqib hudud mehnat resurslarining tadbirkorlikka moyil darajasining quyidagicha hisoblashimiz mumkin:

(2.1)

$$HTMD = \frac{TS}{JMP} - 100$$

Bu yerda:

XTMD-hududning tadbirkorlikka moyillik darajasi;

TS-tadbirkorlik sub'yektlari soni;

JMP-jami mehnat resurslari soni.

Bundan tashqari tarmoq bo'yicha tadbirkorlikka moyillik darajasini hisoblash hududning ixtisoslashgan darajasi va harakatcha mehnat resurslari qaysi tarmoqda ko'proq faoliyat ko'rsatayotganligi hamda qaysi tarmoqda faoliyat ko'rsatish tadbirkorlar uchun samarali ekanligini ko'rsatadi.

Tarmoq bo'yicha tadbirkorlikka moyillik darajasini quyidagicha hisoblashimiz mumkin:

(2.2)

$$TMD_t = \frac{TBS_t}{TMS_t} - 100$$

Bu yerda:

TMD_t-Tarmoq bo'yicha hududning tadbirkorlikka moyillik darajasi

TBS_t-Tarmoq bo'yicha tadbirkorlik sub'yektlari soni

TMS_t- Tarmoq bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan mehnat resurslari soni.

Samarqand viloyatida 2017 yilda qishloq joylarida 1570,4ming mehnat resurslari mavjud bo'lib ushbu agrosanoat majmui tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklari,

agrofirmalar) soni 35422 birlikni tashkil etadi. Viloyatda tarmoqning tadbirkorlikka moyillik darajasini quyidagicha topishimiz mumkin:

(2.3)

$$\text{TMD}_t = \frac{\text{TBS}_t}{\text{TMS}_t} \cdot 100 = \frac{565620}{1570400} \cdot 100 = 36.0$$

Viloyatda 2016 yilda agrosanoat majmuida 36.0 foiz mehnat resursi tadbirkorlikka moyil va layoqatli deb topildi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish darajasi ko'rsatkichlarini hamda ish bilan bandlikni oshirish uchun hududlarda tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari va mavjud mehnat resurslarining harakatchanligini ta'minlash, kasb-malakasini oshirish, kishilardagi mavjud tajribani saqlab qolish muhimdir. Buning uchun bizning fikrimizcha, mehnat resurslarining ikki yo'nalishdagi malaka oshirish tizimini shakllantirish tadbirkorlar o'rtasida hamda qishloq mehnat resurslari va tadbirkorlar o'rtasida raqobat muhitini yaratish imkonini beradi.

Jumladan, qishloq mehnat bozoridagi holat hamda ish bilan bandlikni ta'minlash bo'yich mavjud muammolar quyidagilar:

- iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band kishilar salmog'ining yuqoriligi;
- ish bilan bandlik ko'p jihatdan beqarr ish o'rinlarini yaratish hisobiga oshayotganligi, xususan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ko'pligi;
- yashirin ishsizlik ko'lalari saqlanib qolayotganligi;
- malakali ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif orasidagi nomuvofiqlikning mavjudligi.

Bu muammolarni hal qilishda yaqin kelajakda quyidagi vazifalarni bajarish kerak deb hisoblaymiz:

- aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish, ayniqsa qishliq aholisi hamda mehnat bozorida yetarli darajada raqobatbardosh bo'lmagan ijtimoiy-demografik guruhlarining ish bilan bandlik darajasini oshirish;
- ish bilan bandlikning tarmoq va hudud tarkibini takomillashtirish;
- mehnat bozorida talab va taklifning miqdor va sifat (kasb-malaka) jihatdan mutanosibligini ta'minlash
- ishchi kuchining sifatini, kasbiy va hududiy harakatchanligini oshirish;
- kasb-hunar kollejlarida mutxassislik va o'quv yo'nalishlarining yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqligini ta'minlash. Bunda mehnat bozorining joriy ehtiyojlari hamda iqtisodiyotning yangi tarmoqlari, qayta ishlash, ishlab chiqarishlari ijtimoiy va bozor infratuzilmasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ko'zda tutish;
- barcha viloyatlarda mintaqaviy mehnat bozorlarida yetarlicha talab mavjud bo'lmagan kasblar bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi kasb-hunar kollejlarida profilini o'zgartirish hisobiga kichik biznes sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha tashkilotchi-mehejerlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarini tashkil etish;
- ishsizlarni o'qitish, qayta o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha mehnat isoralarining xizmatlarini rivojlantirish. Bunda o'qitishning katta qismi sharnoma asosida kasb-hunar kollejlari negizida amalga oshirilishi lozim.

Biz tahlil qilish jaranida Samarqand viloyatining tumanlarida sanoatni yanada rivojlantirish maqsadida har yili xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, sanoatni rivojlantirish va ular orqali iste'mol mollari ishlab chiqarish, aholini ish bilan ta'minlash, savdo, maishiy, transport, aloqa, tibbiy xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengaytirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan yili Samarqand viloyatida jami-3307,1 mlrd so'm investitsiya jalb etilgan bo'lsa shundan Respublika byudjeti hisoidan-7,1 mlrd.so'm tijorat banklari tomonidan-14,1 mlrd so'mlik pul mablag'lari ajratildi.

Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanlarida qarashli korxonaning o'z mablag'i hisobidan bunyod etilayotgan korxonada to'rt nafar mahalliy aholi muhim ish o'rniga ega bo'ladi. Payshanba qo'rg'onida "Hakimov G'ulom" xususiy korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha esa aholining non va non mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini birmuncha ta'minlaydi. Ya'ni, korxona yiliga 188 tonna mahsulot ishlab chiqarishni mo'ljallayotir.

Shuningdek, joriy yilda tumanda birgina yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish borasida umumiy qiymati 1 milliard 262.9 million so'mni tashkil etadigan 9 ta loyiha amalga oshirildi. Xususan, "Imkoniyat manbai" ma'suliyati cheklangan jamiyatida yillik quvvati 100 million so'mlik tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilayotir. Tumanning olis Girdiqo'rg'on qishloq fuqarolar yig'ini hududida tashkil etilayotgan mazkur korxonani ishga tushurish uchun "Xalq banki"ning Payshanba filiali 108.7 million so'm kredit mablag'i ajratdi.

Masalan, Omonboy qishloq fuqarolar yig'ini yiliga 5 million dona g'isht ishlab chiqarishga mo'ljallangan "Sifat g'isht qurilish" ma'suliyati cheklangan jamiyati o'z faoliyatini boshlaydi. Loyiha qiymati 250 million so'mni tashkil etayotgan mazkur korxona joriy yilning iyo'l oyida mahsulot ishlab chiqara boshlaydi va 20 nafar mahalliy aholining muqim ish o'rni bilan ta'minlaydi.

Mavjud barcha loyihalarni amalga oshirish natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan joriy yil akuni bilan 8.9 foiz o'sishga erishilishi. Umuman bugungi kunda tumanda amalga oshirilayotgan har bir loyiha tuman iqtisodiyoti va aholi farovonligini ta'minlash hamda ichki va tshqi bozorga sifatli sanoat mahsulotlari yetkazib berish, yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki O'zbekiston iqtisodiyotining tayanchi agar soha, demak, uning rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy omili sifatida qaralishi lozim. Bugun mamlakatimizda nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, balki uni qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirish sohalariga ham katta e'tibor qaratilmoqda, sanoatning rivojlanishi ham birinchi navbatda, aynan mana

shu sohalarning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. O'zbekistondagi agrar islohotlarning izchillik bilan amalga oshirilishida mulkiy islohotlar, huquqiy-normativ bazaning yaratilishi, lizing va kreditlash mexanizmlarining takomillashuvi va boshqa shu kabi tadbirlar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, biroq mamlakatimizning tabiiy potensialini inobatga olgan holda aytish mumkinki, bu borada hali ko'pgina muammo va vazifalar mavjud. Mamlakatimizda xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda, qishloq xo'jaligini iqtisodiy islox etish bo'yicha o'ta muxim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirish, fermerlik xarakatini qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda, ayniqsa qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasida xali-beri foydalanilmayotgan katta rezerv va imkoniyatlar mavjudligini tan olishimiz xamda bunga aloxida e'tibor qaratishimiz zarur.

Respublika sanoatining ko'pgina tarmoqlari masalan, paxta tozalash, to'qimachilik, engil sanoat, oziq-ovqat, kimyo, mashinasozlik sanoati va boshqalar taraqqiyoti va istiqbolli aynan qishloq xo'jaligiga bog'liqdir. Respublikamiz milliy daromadining muxim manbai bo'lgan eksport tarkibini xam ko'zdan kechirar ekanmiz, eksport maxsulotlarining asosiy tarkibini tabiiy xomashyo xamda qishloq xo'jaligi maxsulotlari tashkil etishining guvoni bo'lamiz. Demak, bu soxaga e'tibor, uni rivojlantirish va modernizatsiyalash respublikada tabiiy xamda sanoat potencialini saqlab qolish, shuningdek, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish imkonini beradi. Agrar sohani rivojlantirish uchun avvlambor, qishloq xo'jaligi infratuzilmasini takomillashtirish va zamonaviylashtirish, shu bilan bir qatorda asosiy ishlab chiqarish omili bo'lgan mehnat resurslari, ya'ni ishchi kuchiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, bu borada qator ishlar amalga oshirilishi lozim. Jumladan, iqtisodiy o'sishni rivojlantirish borasida: iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish; iqtisodiyotni va uning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik

va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish va ko'lamlarini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash Qishloq aholisi farovonligi va turmush darajasini oshirish borasida:

- tuman, qishloq va posyolkalarning urbanizatsiya darajasini oshirish, gaz, elektr energiya, suv ta'minoti muammolarini xal etish, ta'minotning zamonaviy, uzluksiz bo'lishini ta'minlash, yo'l ta'miri va ko'chalar obodligi, yorug'ligini takomillashtirish, aloqa tizimini yaxshilash;

- uy-joylar qurilishi va ta'mirlanishi uchun imtiyozli kreditlar ajratish;

- qishoqlarda ilm-fan, madaniyat sohalarini rivojlantirish;

- mamlakatimizdan boshqa yurtlarga aholi migratsiyasining asosiy tarkibini qishloq aholisi tashkil etishi bois, qishloq joylarida ish bilan bandlik muammolariga alohida e'tibor qaratish; kasb-hunarga o'rgatish va kasanachilikni yanada rivojlantirish, real ish haqi miqdorini oshirish, qishloq aholisining ijtimoiy ximoyasini yanada kuchaytirish va b.

Bu muammolar hal qilinib, qo'yilgan vazifalar amalga oshirilsa, mamlakatimiz xududlardagi qishlok aholisining farovonligi hamda qishloqlarning taraqqiyotiga erishiladi. Bu esa O'zbekistonga rivojlanish sari yangi marralami ochib beradi.

2.2. Sanoat korxonalar faoliyatini tiklash orqali ish o'rinlarini tashkil etish holatini tahlili

Samarqand viloyati tumanlarida mavjud korxonalarni faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, uning samarali amal qilishi uchun mazkur faoliyat iqtisodiy tabiatidan kelib chiquvchi quyidagi asosiy tamoyillarni belgilab olish muhim hisoblanadi: tomonlar (ish beruvchi va ishchi)ning o'zaro faoliyatidagi ixtiyoriylik; ularning mazkur faoliyat yuzasidan tuziluvchi mehnat shartnomasidan o'zaro manfaatdorlik; kasanachilik faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilganligi; uning har

ikkala tomon uchun ham kelgusidagi rivojlanish uchun imkoniyat yaratishi; kasanachilikni tashkil etishda mehnat faoliyati xususiyatlarining hisobga olinishi.

Korxonalarda yangi ish o‘rinlarini tashkil etishda kasanachilik asosida va kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yishda manfaatdorligi asosan 2 turdagi jarayonlar orqali namoyon bo‘lishi mumkin: mazkur faoliyatni yo‘lga qo‘yishdan olinuvchi tabiiy-iqtisodiy naf; mazkur faoliyatni rag‘batlantirish maqsadida qo‘llanilgan iqtisodiy, ma‘muriy va boshqa tavsifdagi chora-tadbirlar majmuidan olinuvchi naf.

Masalan, yirik korxona uchun past rentabelli va ko‘p mehnat sarfi talab qilinadigan mahsulotlarning ayrim turlarini kasanachilik asosida ishlab chiqarishga o‘tilishi, mahsulot tannarxining pasayishi va ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga imkon yaratishi mumkin. Biroq, ko‘p hollarda kasanachilik faoliyatini tashkil etish ish beruvchidan ma‘lum sa‘y-harakatlarni talab etadiki, bular o‘z o‘rnida bu faoliyatning yo‘lga qo‘yilishida o‘ziga xos to‘sqinlik omili bo‘lib maydonga tushishi mumkin. Masalan: korxonadagi umumiy ish tartibida ishlovchilar soni etarli bo‘lgani holda, kasanachilik asosida qo‘shimcha ishchilarni yollashga ehtiyoj bo‘lmaydi; ish beruvchi korxona miqyos jihatidan yiriklashib, moliyaviy jihatdan imkoniyatlari oshib borishi bilan kasanachilik orqali qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan samaraning ahamiyati nisbatan pasayib boradi; ish beruvchi tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etish va moddiy-texnika ta‘minotidagi bir qator muammolarni (ya‘ni, kasanachilik asbob-uskunalar, xom ashyo va materiallar bilan ta‘minlash, ish joyida texnika xavfsizligiga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish, kasanachilik faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish, tayyor mahsulotni olib ketish va h.k.)hal etish lozim bo‘ladi.

Yakka tartibdagi xususiy tadbirkorlarning kasanachilar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishdan manfaatdorligining kuchliligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi: odatda yakka tartibdagi xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning oddiy va soddaligi, maxsus texnika va boshqa shart-sharoitlarni taqozo etmasligi, asosan qo‘l mehnatini taqozo etishi;

kasanachilik bo'yicha mehnat shartnomalarining norasmiy tarzda tuzilishi, ya'ni ularning qonuniy tavsif kasb etmasligi.

Ayniqsa, ikkinchi holati yakka tartibdagi xususiy tadbirkorlar tomonidan turli to'lovlar (ijtimoiy jamg'armalarga to'lovlar, sug'urta to'lovlari va boshqalar)ni amalga oshirilishning oldini oladi. Bu esa, tadbirkor uchun yollanma mehnatning mazkur turidan foydalanishning afzalligini kuchaytiradi.

Yirik sanoat korxonalarini rivojlantirish bilan bir qatorda o'y mehnati faoliyati aholi daromadini oshirish, uning samarali bandligini ta'minlash bilan bir qatorda quyidagi ijtimoiy vazifalarni ham bajarishi mumkin. Birinchidan, kasanachilik iqtisodiy sub'ektlarning faoliyat erkinligi va mustaqilligiga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida kishilarning yakka tartibdagi-ruhiy xususiyatlarini hisobga olish va namon etishning samarali shakli sifatida maydonga tushishi mumkin.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, kasanachilikning ijtimoiy himoya vositasi sifatidagi aholi daromadlarini oshirish hamda uning samarali bandligini ta'minlash bilan bir qatorda uning boshqa vazifasi-kishilarda tadbirkorlik hissasining shakllanishiga imkon yaratish kabi jihatlarga ham e'tibor qaratish muhimdir.

Quyidagi 2.1-jadvalda Samarqand viloyati tumanlarida mehnat shartnomalari asosida korxonalar bilan tashkil etilgan ish o'rinlari haqida ma'lumot aks ettirgan.

Tahlillar shuni ko'satadiki sanoat korxonalarini tashkil etish orqali viloyat bo'yicha 8344 ta ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan bo'lib bu ko'rsatkich 101,1 foizga bajarilgan. Iqtisodiy nochar va ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash orqali 5226 ta ish o'rinlari yaratildi.

Viloyatda har ikkala imkoniyatlardan to'la foydalangan holda yangi ish o'rinlari yaratishga erishildi. Uy mehnatini tashkil etish orqali esa -17550 ta yangi ish joylari tashkil etildi.

**Samarqand viloyati bo'yicha ishlamayotgan korxonalar faoliyatini
tiklash orqali yaratilgan ish o'rinlari 2017 yil**

Tuman, shaharlar nomi	Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar faoliyatini tiklash, bo'sh turgan davlat ob'ektlarini ijaraga berish yoki xususiylashtirish orqali			
	Dastur	Loyiha soni	Amalda	%
Samarqand shahri	720	124	724	100,6
Kattaqo'rg'on shahri	191	11	191	100,0
Oqdaryo tumani	80	80	100,0	100,0
Bulung'ur tumani	119	119	100,0	100,0
Jomboy tumani	147	2	147	100,0
Ishtixon tumani	113	19	47	41,6
Kattaqo'rg'on tumani	96	26	96	100,0
Qo'shrabot tumani	63	16	63	100,0
Narpay tumani	104	13	104	100,0
Payariq tumani	58	11	58	100,0
Paxtachi tumani	114	18	114	100,0
Pastdarg'om tumani	244	20	244	100,0
Samarqand tumani	99	28	100	100,0
Nurobod tumani	66	11	66	100,0
Urgut tumani	41	11	41	100,0
Tayloq tumani	115	33	115	100,0
Viloyat bo'yicha jami:	2432	406	2371	97,5

Manba : Samarqand viloyati bandlik bosh boshqarmasi ma'lumotidan.

Darhaqiqat, o'y mehnati - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bir shakli sifatida rivojlanib, milliy iqtisodiyotning yo'qsalib borishiga ko'maklashdi. O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirish va uni davlat tomonidan tartibga solish masalalari tobora o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bugungi kunda kasanachilik faoliyatini yaxshilash natijasida quyidagilarga erishish imkoniyatlari yaratiladi:

- yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandlik darajasini oshirishga erishiladi, bunda aholini mehnat bilan band etish imkoniyatlari kengayadi;

- yirik korxonalar uchun ishlab chiqarish samarasiz bo'lgan maxsulotlarni kichik va mikro darajadagi korxonalarda ishlab chiqariladi, bunda ishlab chiqarish sohasida kichik biznes sub'ektlarining xissasi ortadi va ishlab chiqarishda yangi imkoniyatlar yuzaga keladi;

- maxsulot va xizmatlarni ko'paytirish orqali aholi farovonligi oshiriladi, bunda xalq ehtiyojini qondirish va turmush darajasini yaxshilash imkoniyatlari tutiladi.

Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarkibida kasanachilikning tobora rivojlanishi natijasida aholi daromadlari tarkibida ijobiy siljishlarga erishildi. Agar 2012 yil ko'rsatkichlarini «...2000 yil bilan taqqoslansa, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Xisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi» Keyingi yillarda iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish ishlari jadallashtirilib, uning lokomotivi bo'lmish yangi ishlab chiqarish tarmoqlariga asos solingani, etakchi soxalarda barqaror rivojlanish sur'atlari saqlanib qolinayotganni ana shunday yutuqlarga erishishda mustahkam poydevor bo'lmoqda.

Biroq, quyidagi fikrlarimizdan o'y mehnatini rivojlantirish sohasida barcha muammolar xalq etib bo'lindi, degan xulosa chiqarish noo'rin. Ayni davrda kasanachilikni rivojlanishiga to'siq bo'layotgan jiddiy muammolar borki, ularni tezlik bilan bartaraf etish choralari ko'rishimiz zarur. Kasanachilik bilan sanoat korxonasi o'rtasida ham o'ziga xos muammolar shakllanganki, ularni yechimini topishda inson omiliga e'tiborni qaratish muhimdir:

Masalan: - aholining aksariyat qismi ushbu tadbirlarning amalga oshirilayotganligidan to'liq xabardor emaslar. Shuning uchun kasanachilik bilan shug'ullanishlarida qiyinchiliklar yuzaga kelgan.

- o'y mehnatini joriy etishdagi muammolardan biri, zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda vaqt omilidan samarasiz foydalanishdir. Ayrim korxonalarda ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini ishga tushirishda

ko'p vaqt talab qilinib, ish beruvchilar bilan kasanachilar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

- o'y mehnatini rivojlantirish asosida tayyor maxsulotlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishda raqobat muhiti sust shakllangan.

- o'y mehnatini sug'urta qilish mexanizmi faol emas.

Yuqoridagi muammolarni xal etish maqsadida quyidagicha takliflar berish mumkin deb hisoblaymiz:

1. Aholining huquqiy savodxonligini mustahkamlash maqsadida kasanachilik bilan shug'ullanish lozimligi to'g'risidagi targ'ibot ishlarini uzluksiz amalga oshirish zarur. Kasanachilikni huquqiy me'yorlari bilan yaqindan tanishtirish choralari qo'llash lozim. Bu borada ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini ishga tushirish jarayonlarida me'yoriy xujjatlarga asoslanishni kuchaytirish muhimdir. Shuningdek, ish beruvchilar bilan kasanachilar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarda muammolar yuzaga kelgan korxonalarda tegishli nazorat organlari ko'magidan foydalanishlari zarur bo'ladi.

3. Raqobat muhitini kuchaytiruvchi chora-tadbirlarni joriy etish zarur. Buning uchun kasanachilikla yaratiladigan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlariga e'tiborni jiddiy qaratish talab etiladi.

Bugungi kunda tarmoqlararo va ichki tarmoq sanoat kooperatsiyasining imkoniyatlaridan foydalanish masalasi yetakchi rol o'ynaydi, bu esa xo'jalik yurituvchi va kichik biznes sub'yektlarining yanada rivojlanishini taqozo etadi.

Umuman, sanoat kooperatsiyasi ma'lum bir mahsulotni hamkorlikda ishlab chiqarish bo'yicha sanoat korxonalari va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasida o'rnatilgan manfaatli o'zaro aloqalar bo'lib, u quyidagi afzalliklarga ega:

- Murakkab mahsulotni ishlab chiqarishni o'zlashtirish tezlashadi va muddatlarda "uy sanoati" rivojlanib, buning natijasida aholi bandligi kiradi;

- Xo'jaliklar o'rtasida uzoq muddatli aloqalar o'rnatiladi va biror mahsulotni ishlab chiqarishda chuqur ixtisoslashuv yuzaga keladi.

Mamlakatimizning o'ziga xosligi, ortiqcha mehnatzaxiralarining mavjudligi, hatto aytish mumkinki, aholining an'analari, mehnatga bo'lgan munosabati kasanachilikni faol rivojlantirishni ob'yektiv zarurat qilib qo'ymoqda. Bundan tashqari, kasanachilikning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalriga kirishgan holda iqtisodiyotdagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishi bu mehnat faoliyati turini yanada rivojlantirish lozimligini taqozo qilmoqda. Bu vazifalarning eng asosiylaridan biri shundan iboratki, kasanachilik rivoji jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta sinfning shakllanishiga olib keladi.

Kasanachilikning yana bir muhim vazifasi kasanachilarning yirik korxonalarga mehnat shartnomalari asosida yollanib ishlashlari chog'ida ular o'rtasida raqobatchilik muhitini yaratishdan iborat. Bunday vaziyatda kasanachilar kooperatsiya aloqalrining uzilmasligi uchun o'zlarining kasbiy mahoratlarini yanada oshirishga, yaratilayotgan mahsulotlarni (ko'rsatilayotgan xizmatlarni) sifat jihatidan yanada takomillashtirishga, mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga harakat qilishadi.

Kasanachilikning keyingi vazifasi yirik korxonalarga xos bo'lgan texnik konservatizmni bartaraf etishga ko'maklashishdan iborat bo'lib, nisbatan kam xarajatlar evaziga yangi ish o'rinlarini yaratish orqali bandlik muammosini hal etishga, aholining turli ijtimoiy qatlamlari daromadlari o'rtasidagi tafovutni qisqartirishga imkon beradi.

Kasanachilikning ijtimoiy vazifalari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u kishilarning ijodkorlik salohiyatlarini namoyon etish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Unda yirik korxonalardan farqli o'laroq, ishlab chiqarish natijalari va ishlovchilarning manfaatlari o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'rinib turadi. Bundan tashqari, kasanachilikni rivojlantirish yo'lida yaratilayotgan imkoniyatlar, huquqiy kafolatlar "ustoz-shogird" an'alarining yo'qolib ketmasligiga, boshqacha qilib

aytganda, milliy hunarmandchiligimizning asrlar osha saqlanib, sayqallanib borishiga zamin yaratadi.

Kasanachilik ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlari – oilada uy-ro'zg'or yumushlari va farzand tarbiyasi bilan band bo'lgan ayollar, nogironlar va boshqalarni ish bilan ta'minlaydi hamda ularning mehnatidan keng foydalanadi. Bu ham kasanachilikning muhim ijtimoiy vazifalaridan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni sanoat korxonalari bilan ishlab chiqarish uchun yoki xizmatlar ko'rsatish uchun kasanachilikni turli shakllari o'rtaida kooperatsiyani rivojlantirishga asos bo'lmoqda. Kooperatsiya aloqalari asosida kasanachilikni tashkil qilish bu yirik sanoat korxonalariga ko'p mehnat talab etadigan ishlarning bir qismini uyda mehnat qilayotgan ishchilarga berishga imkon berdi.

Xulosa qilib aytganda, kasanachilik-mehnatga qobiliyatli aholi bandligi va oila byudjeti barqaror daromadini ta'minlash muammolarini hal etish yo'lida mulkiy, huquqiy hamda ijtimoiy mehnat muhofazasigina emas, balki mamlakatimizda shiddat bilan kechayotgan bozor iqtisodiyoti jarayonlarida tobora keng namoyon bo'layotgan moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarimiz istiqbolidir.

Umuman olganda, mamlakatimizda kasanachilik sohalarini barqaror rivojlantirish borasida ahamiyatli ishlar olib borilmoqda, ular pirovardida aholi turmush darajasining yo'qsalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayniqsa aholini, ish bilan ta'minlashning yangicha va noan'anaviy ko'rinishlarini joriy etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, aholi bandligi va daromadlarini barqaror o'sishini ta'minlashga doir bir qancha vazifalarni bajarishda kasanachilik mehnatining turli shakllarini joriy etish, yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyani rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bizning fikrimizcha, kasanachilarga xizmat qiladigan maxsus servis tizimi yaratilishi shart. Hozirgi xizmat ko'rsatish shahobchalari ularga samarali xizmat ko'rsata olmayapti. Bundan tashqari har bir tumanning xususiyatidan kelib chiqib kasanachilikni tashkil qilinsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

III-BOB. SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH VA YANGILARINI TASHKIL ETISH ORQALI ISH O‘RINLARINI YARATISH

3.1.Sanoat tarmoqlarini tashkil etish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari

O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish, fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish, aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bunga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kiritilgan investitsiyalar va mavjud moddiy-texnika asosini modernizatsiya qilishdan tashqari boshqaruvning demokratik tamoyillarini kuchaytirish, korxona, firma va ularga tenglashtirilgan ishlab chiqarish tuzilmalarining xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq mustaqillilik doirasini kengaytirish, siyosatining iqtisodiyotdan ustunligiga barham berish, inson faoliyatining barcha soha va tarmoqlarida tashabbuskorlik, izlanish va hokazolarning rivojlanishi ham keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Mustaqillik davridan barcha xo‘jalik yuritish tizimi bozor iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini hisoblanuvchi korxona maqomining sezilarli ravishda o‘zgarishiga hamda milliy iqtisodiyotimizda miqdor va sifat o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti jamiyatni demokratiyalashtirish, iqtisodiyot salohiyatlarini mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga yo‘naltirilgan, bozor munosabatlariga o‘tishning mamlakatimiz uchun maxsus ishlab chiqarilgan modeli asosida rivojlanib bormoqda. Bu model birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni islohot qilishning beshta muhim tamoyiliga asoslangan hamda xo‘jalik faoliyatini yuritish sub’ektlarining erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun asosiy vazifalarni amalga oshirishida korxonalarga katta rol ajratilib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo‘g‘ini

bo'lish bilan birga mahsulot chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondiradilar.

Sanoat korxonasi ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh bo'g'ini bo'lib, unda ilmiy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy masalalari hal etiladi.

Mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish muayyan texnologik jarayonlar, mehnat materiallari, odamlarning bilimi va ko'nikmalari ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatssiyalashga asoslangan holda mustaqil amalga oshiriladigan tizimga aytiladi.

Aynan korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari va ishchini ishlab chiqarish vositalari bilan o'zaro aloqasini amalga oshiriladi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona o'z faoliyatini o'zi boshqaradi, ishlab chiqarilgan mahsulotni olingan sof foydani soliq va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan qismini tasarruf etadi.

Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va assortimenti, xilma-xilligi, xom-ashyo etkazib beruvchilar va xaridorlar baholarni shakllantirish, resurslardan tejimli foydalanish, kadrlarni qo'llash, yuqori unumli texnika va texnologiyadan foydalanish masalalari hal etiladi.

Har bir mamlakat sanoatning quvvati hamda fan-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotni modernizatsiyalash ko'rsatkichlarini birinchi o'rinda yirik korxonalar belgilab beradi. SHu bilan birga yangi korxonalarni tashkil etish orqali raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirmasdan, raqobatdosh iqtisodiyot pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, o'rta muddatli istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotni rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishdek strategik vazifani amalga oshirish mumkin emasligi Yurtboshimiz tomonidan ta'kidlab o'tdi.

Bu vazifalarni bajarishda iqtisodiyotni izchil ravishda isloh qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash. Faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya

qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqaligina ta'minlanishi mumkinligini ilg'or davlatlar tajribasi ko'rsatib turgani Prezidentimiz ma'ruzasida alohida qayd etildi.

3.1-jadval

2018 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan foizda	birlik	yakunga nisbatan foizda
Jami	54811	100,0	43562	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	33934	61,9	23941	55,0
Sanoat	3943	7,2	3713	8,5
Qurilish	1854	3,4	1667	3,8
Savdo	5136	9,4	4737	10,9
Tashish va saqlash	739	1,3	703	1,6
YAshash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1276	2,3	1207	2,8
Axborot va aloqa	418	0,8	391	0,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	475	0,9	465	1,1
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	7036	12,8	6738	15,4

Manba: O'zbekiston Respublikasining statistika axborotnomasi. 2018 y.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 54811 tani tashkil qilib, shundan 43562 tasi yoki 79,5 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va

tashkilotlarning asosiy qismi qishloq va o'rmon xo'jaligi 33934 ta (61,9 foizi), savdo 5136 ta (9,4 foizi), sanoat 3943 ta (7,2 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1276 ta (2,3 foizi), va qurilish sohasida 1854 tani (3,4 foizi) tashkil etdi.

Bizga ma'lumki korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Davlat korxonalar "taqdiriga", ularning ishlab chiqarish faoliyati yakuniy natijalarga befarq qarab tura olmaydi. Bankrotga uchragan korxonalar, zarar keltiruvchi ishlab chiqarish iqtisodiy nochorlik-bularning barchasi korxona jamoasi uchun ham, davlat uchun ham og'ir yuk hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil va rentabellikning yuqori ko'rsatgichlarni² erishishga keng imkoniyatlar yaratdi, deb hisoblanadi. Balki haqiqatdan ham shundaydir. Biroq korxona ayniqsa, davlatga tegishli bo'lgan korxona qanday ishlashi, uning jamiyatga keltiruvchi foydasi, rentabellik darajasi, xodimlarning bandligi qanday bo'lishi faqat korxonalarga katta imkoniyatlar yaratib berish bilan birga ularni belgilangan tartibda nazorat qilib ham boradi.


Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida barcha korxonalar ham raqobatchilikni engib, samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda ololmaydi. Natijada minglab korxonalar tashkil qilinib xo'jalik faoliyati borasiga qo'shiladi va deyarli shunchasi turli sabablarga ko'ra tugatiladi.

Shu sababli hamkorlik korxonalarning tugatilishi bozor iqtisodiyot iqtisodiyot sharoitlarida odatiy hol bo'lib, bu ahvolga tushib qolishdan ehtiyot bo'lish kerak bo'lsada, lekin bundan fojia ham yasash kerak emas. Tadbirkorlarni oldiga turgan asosiy vazifa korxonani bankrot bo'lishiga olib kelmaslik, uning

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015" yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010 yil 15-dekabrda PO-1442 sonli qarori.

iqtisodiy mustaqilligi, mehnat qobiliyati va daromadligi milliy iqtisodiyotga qo‘shiladigan hissa bo‘lishidan tashqari respublikamizda tobora ko‘payib borayotgan aholini ish bilan ta‘minlashda ham ahamiyat kasb etishini unutmashlik muhim. Ko‘rinib turibdiki, istalgan korxonaning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, olinadigan foyda yoki daromad miqdoridan tashqari bu korxonaning aholini ish bilan ta‘minlashdagi ishtirokida ham bog‘liq bo‘ladi. Aholini ish bilan ta‘minlar ekan, korxonalar o‘zlarining bevosita ishlab chiqarish funksiyalarini bajarishdan tashqari ishsizlikning kamayishiga ya‘ni, mehnat faoliyatining o‘rtishi va jismoniy aholining yaxshilashiga ham sababchi bo‘ladi. Shuni alohida takidlash joizki yangi korxonalarni tashkil etish orqali bandlikni ta‘minlash imkoniyatlari yaratiladi.

Bandlikni ta‘minlashda mehnat bozorining roli muhim ahamiyatga egadir. Samarqand viloyatida har bir tuman shaharlardagi mehnat bozorlari faoliyatidan kelib chiqib, 2017 yil uchun aholi bandligini ta‘minlash va yangi ish joylarini barpo qilish dasturiga ko‘ra, 201 yilda 77659 ta ish o‘rinlari yaratildi.



3.1- rasm

Samarqand viloyati bo‘yicha yaratilgan yangi ish o‘rinlari dinamikasi aks ettirilgan (2010-2017 y).

Manba: Samarqand viloyat ststistika Bosh boshqarmasi ma‘lumotida.

Birinchidan: dastur parametrlari hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvorliklar, investitsiya, lokalizatsiya va alohida tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish dasturlari, inqirozga qarshi chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish;

Ikkinchidan: alohida hududlar kesimida juda katta xarajat qilmagan holda ish joylarni ko‘paytirishning imkoniyatlarini ishga solish va zaxiralardan to‘liqroq foydalanishni nazarda tutish;

Uchinchidan: kichik biznes, fermerlikni, xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini, ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasining ustuvor tarzda rivojlanishini, shu jumladan uy mehnati, milliy hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlikni keng tashkil qilishga yo‘naltirish;

To‘rtinchidan: korxonalar, tadbirkorlar, manfaatdor tashkilotlar, tijorat banklari mablag‘lari hisobidan ajratilgan imtiyozli kreditlar hisobiga kichik biznesni rag‘batlantirish;

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat jamiyat a‘zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdagina iborat bo‘lmasdan, balki mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini ta‘minlashga ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o‘sishi yuqori sur‘atlari bilan borayotgan va o‘ziga xos aholi tarkibiga ega bo‘lgan bizning Respublikada ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy islohatlar davrida ushbu masalani hal etish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Mehnat bozori shakllanishiga ishchi kuchining mehnatga bo‘lgan qobiliyati tovarga aylanishi, erkin taklifi, ish beruvchilarning ishchi kuchiga mustaqil talabi, iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishi, ko‘p mulkchilikning rivojlanishi kabi iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar bevosita ta’sir etadi.

Bozor iqtisodiyoti ishchilarni ish bilan ta‘minlash imkoniyatlarini yaratish uchun sanoat korxonalarida ish o‘rinlarini ko‘paytirish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasining har qanday shakllarida ijrosining samarali, yuqori unum bilan ishlashning zarur sharti ish o‘rinlarini

tashkil etish va ularga imkoniyatlar yaratishdir. Ish o'rnini har qanday ishlab chiqarish va mehnat jarayonining birinchi bo'g'ini bo'lib, aynan ishlab chiqarish jarayonida uchta elementning hammasi: mehnat ashyolari, mehnat vositalari va ishchi kuchi ya'ni ijrochi xodimning jonli mehnati yagona bo'lib birlashadi, bu hamkorlik natijasida esa yangi iste'mol qiymatlari, mehnat mahsulotlari yaratiladi. Shuning uchun ham ish o'rinlarini tashkil etishga katta e'tibor beriladi.

Ish o'rnini ishlab chiqarish makonining bir qismi bo'lib, unda barcha asosiy va yordamchi texnologiya uskunalari, moslamalar, asboblari, ish mebellari va maxsus qurilmalar joylashtirilgan bo'ladi va ular muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ish o'rnini ichida ish zonasi ajratiladi, bu uch o'lchovi makon bo'lib, uning borasida xodimning barcha asosiy mehnat xarakatlari amalga oshiriladi. Bu zona ish o'rinlarining eng faol qismi hisoblanadi va uni tashkil etishda alohida talablar qo'yiladi: insonning antropometrik va biomehanik parametrlarga mos kelishi, fiziologik jihatdan oqilona ish vaziyatni, tana a'zolarining mehnat ashyolariga, asbob yoki mashinalar mehnat harakatlarining navfsizligi va mehnat sharoitlarining zararsizligini kafolatlaydi. Ish o'rnini va ish zonasini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni fanning maxsus tarmog'i egromomika ishlab chiqiladi. Bu fanning vazifasi-insonning mehnat jarayonlaridagi funksional imkoniyatlarni o'rganish va erg maqbul mehnat sharoitlarini yaratish yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqishdir. Bu sharoitlar asbob-uskunalar, mehnat sharoitlar va texnologiyaning tuzilish inson organizimining psixofiziologik xususiyatlarga mos kelishini ta'minlaydi.

Mehnat bozori shakllanishida asosiy muammo bo'lgan ishchi kuchiga talabning ortishi va taklifning kamayishi turli omillar, tamoyillar va cheklovlar ta'sirida amalga oshiriladi. Mehnat bozorini yaqin kelajakda rivojlanishning bosh maqsadi-mehnat resurslari bilan ko'p ta'minlangan hududlarda ishchi kuchiga talabni oshirish va uning taklifini kamaytirish. Mehnat bozorining rivojlanish bosqichlarida qayd etilgan tadbirlarning amalga oshirilishi yaqin kelajakda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatga erishish, pirovardida mehnat

resurslarining oqilona bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishga olib keladi.

Quyidagi 3.2-jadvalda 2017 yilda tashkil etilgan yangi ish o'rinlari haqida ma'lumot aks ettirilgan:

3.2-jadval

2017 yilda Samarqand viloyati bo'yicha yaratilgan ish o'rinlari haqida ma'lumot

№	Tuman va shaharlar nomi	Barcha yo'nalishlar bo'yicha yaratilgan ish o'rinlari jami (ish o'rni) amalda	Maqsadli dasturlarga asosan tashkil etilgan ish o'rinlari	Shundan		Ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash
				Sanoatda	Xizmat ko'rsatishda	
1	Samarqand shahri	13405	4651	2032	1014	32
2	Kattaqo'rg'on shahri	1918	1249	402	596	149
3	Oqdaryo tumani	3542	1834	500	408	94
4	Bulung'ur tumani	4510	1611	634	512	122
5	Jomboy tumani	3556	1635	813	478	-
6	Ishtixon tumani	4842	1254	187	603	46
7	Kattaqo'rg'on tumani	4593	1676	294	646	60
8	Qo'shrabot tumani	3062	1056	102	451	57
9	Narpay tumani	4519	1352	445	566	-
10	Payariq tumani	5156	2334	411	631	45
11	Paxtachi tumani	3867	790	194	319	66
12	Pastdarg'om tumani	5032	1822	670	674	143
13	Samarqand tumani	3623	1415	610	347	100
14	Nurobod tumani	3552	1137	94	265	27
15	Urgut tumani	8246	3124	1778	706	29
16	Tayloq tumani	4236	946	170	281	100
	Jami viloyat bo'yicha:	77659	27926	9336	8497	1070

Manba: Samarqand viloyati mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Samarqand viloyatida 76633 ta dasturda tashkil etish rejalashtirilgan bo'lsa, amalda 77659 ta ya'ni 1026 taga ko'p ish o'rni

yaratilgan, maqsadli dasturga asosan-27926 ta ish o'rnini tashkil etildi, sanoatda esa 9336 ta ish joylari yaratildi.

Xulosa o'rnida Samarqand viloyatida har bir tuman va shaharlardagi mehnat bozoridagi ehtiyojlar hisob-kitob qilib chiqilib, 2017 yil uchun aholi bandligini ta'minlash va yangi ish joylarini barpo qilish dasturlari ishlab chiqilgan va dastur parametrlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 1082-1 sonli va Oliy Majlis Senatining 694-1 sonli qarori bilan tasdiqlandi.

Shunday bo'lsada, joylarda tuman va shahar ishchi komissiyalari tomonida bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirmaganligi, Hukumat qarorlari talablariga mos kelmaslik, ish haqlari, buyurtmalar kechiktirib berilishi hamda mehnat munosabatlari to'liq yuritilmaslik holatlari aniqlangan.

3.2. Xududlarda sanoat tarmoqlarida mehnatni tashkil etish orqali bandlikni ta'minlash

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar jarayonida Respublikamiz iqtisodiyotning sifat jihatdan bir-biridan farq qiluvchi har bir rivojlanish bosqichi ish bilan ta'minlashning muayyan, modelini amalga oshirishning mos keluvchi xususiyatlari jamiyat faoliyatining muhim jarayonlarini ochib beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyat muammolari ichida insonning yani shaxsini, talab ehtiyojlarini hisobga olmasdan hal qilishga urinish omadsizlikka olib keladi. Shuning uchun avvallari olimlar ish bilan bandlik muammolarini ko'rib chiqayotganlarida asosan, uning iqtisodiy jihatlariga e'tibor bergan bo'lsalar, keyingi paytda ish bilan bandlikning ijtimoiy jihatlarini to'g'risida tobora ko'proq gapirilayotganligi bejiz emas.

Aholining ish bilan bandlik konsepsiyasi-jamiyat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichlaridagi ish bilan ta'minlanishining xususiyatini ochib beradigan qarashlar, tasavvurlar tizimidir. Bunday nazariy tushunchalar markaziga uni rivojlantirishning ijtimoiy bozor tipidagi davlat uchun bo'lgan

ob'ektiv jarayonlarni hisobga oluvchi ish bilan ta'minlanishning xususiyatini ochib beradigan qarashlar, tasavvurlar tizimidir. Bunday nazariy tushunchalar markazida uni rivojlantirishning ijtimoiy bozor tipidagi davlat uchun bo'lgan obektiv jarayonlarni hisobga oluvchi ish bilan ta'minlanishning shakllanishi qo'yiladi. Bu o'z navbatida muayyan davr mobaynidagi qo'yilgan maqsadlariga erishishning real imkoniyatlari bilan cheklanmaydi.

Bizga ma'lumki ish bilan bandlik ijtimoiy rivojlanishning har bir bosqichiga xos to'lgan turli ko'rinishlar va shakllarda namoyon bo'ladigan o'ziga xos hodisadir. Iqtisodiy jamoa tizimi jamiyat a'zolarining to'liq ish bilan bandligiga asoslangan edi, uning boisi ishlab chiqaruvchi kuchlarning past darajada rivojlanganligida edi. Quldorlik va feodal formatsiyalar asosan qullar va krepostnoylarning majburiy ish bilan bandligiga asoslangan bo'lib, quldorlar va krepostnoylar ishlamasdan hayot kechirar edilar.

Hozirgi vaqtda ish bilan band aholiga barcha yollanib ishlayotgan xodimlar, o'quvchilar, harbiy xizmatchilar bilan bir qatorda o'zini mustaqil ravishda ish bilan ta'minlaydigan fuqarolar va tadbirkorlik faoliyati shug'ullanayotgan fuqarolar kiritilgan.

Ish bilan bandlik: a) pul bilan to'lanadigan yoki natura holidagi haq evaziga yollanib, shuningdek o'z faoliyati evaziga qancha muddat haq yoki daromad olishidagi qat'iy nazar, foyda yoki oilaviy daromad uchun yollanmasdan haftasiga kamida 2 soat ish bajarganlar; b) kasalligi yoki jarohatlanganligi tufayli, bemorlarga qarab turuvchilar; yillik mehnat ta'tili yoki dam olishkunlarida, o'z ish joyidan tashqarida ta'lim olganlar; ma'muriyat tashabbusi bilan ta'minoti saqlab qolingani yoki saqlanmagan holda mehnat ta'tilida bo'lgan va boshqa shunga o'xshash sabablar bilan vaqtincha ishda bo'lmaganlar; v) oilaviy korxona haq olmasdan ish bajargan shaxslardan tashkil topadi. Ish bilan band bo'lgan aholiga ikki guruh fuqarolar kiradi:

1. Ko'ngilli ravishda ish bilan band bo'lmagan, er-xotindan birining, otasini va boshqalarning mablag'lari hisobiga yashaydigan fuqarolar;

2. Noilojdan ish bilan band bo'lmagan xodimlar kiradi, ular o'z navbatida quyidagilarda: a) mustaqil ravishda ish qidirayotganlar. b) ish bilan band xizmati yordamida ish qidirayotgan; v) rasmiy maqomga ega bo'lgan ishsizlik yuzasidan nafaqa oladigan ishsiz fuqrolarni o'z ichiga oladi.

“Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi Qonun 1992 yil 13 yanvardan qabul qilingan bo'lib, unga 1998 yil 1-mayda ba'zi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritiladi. Qonunda aholining ish bilan bandligining asosiy prinsiplari ifodalab berilgan, bu tamoyillar ish bilan bandlik munosabatlariga bozor xususiyatidan kelib chiqadi bir necha tamoyillar bilan ifodalanadi. Birinchi tamoyil fuqarolarning unumli va ijodi mehnat qilishiga bo'lgan o'z qobiliyatlaridan foydalanishdan iborat fafqulotda huquqidir. Mehnat qilishga majbur etishga (qanday shaklga bo'lmasin) yo'l qo'yilmaydi. Faqat Qonunda alohida belgilangan hollar bundan mustasnodir. O'zbekiston va uning hududlarida mehnatga qobilyatli aholining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha muammoni hal qilishning eng samarali vositalaridan biri bo'lgan mehnat bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tadqiq qilish katta ilmiy amaliy ahamiyatga ega. Ularni o'rganish quyidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarning inobatga olinishini taqozo etadi:

- Respublikada mehnatga qobilyatli aholining 60% dan ortig'i qishloq joylarda yashaydi va yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 40% dan ko'prog'ini ishlab chiqaradi;

- Noqishloq xo'jaligi ishchi joylari etishmasligi sababli ish bilan band bo'lmagan qishloq mehnat resurslari ulushi respublikaning ish bilan band bo'lmagan butun aholisining 60% dan ortig'ini tashkil qiladi va ularni soni o'smoqda;

- Mehnatga qobilyatli, ish bilan band bo'lmagan qishloq mehnatkashlari malakasi va safarbarligining pastligi ularning yashash joylaridan shaharga va mamlakatning kam mehnat bilan ta'minlangan hududlariga hamda xorijiy davlatlar ob'ektlariga qarab harakat qilishlariga asosiy to'siq bo'lmoqda.

-Mehnat resurslarining sonini mehnatni tadbiq etish mintaqalarga nisbatan tezroq o'sishi yashirin ishsizlikni, ayniqsa qishloq xo'jaligida ishchi kuchini taklif etish unga talabdan oshib ketadigan darajada ko'payishiga bevosita yordam beradi.

-Qayta ishlash sanoati, qurilish va xizmat ko'rsatish korxonalari hamda xususiy xo'jaliklarda yangi ishchi joylarini yaratish yo'llari bilan ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi ratsional nisbatni ta'minlash uchun haqiqiy imkoniyatlar mavjud.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorini "Mehnatga qobilyatli" ishchi kuchini xarid qilish sotishni amalga oshiruvchi tizim sifatida ko'rib chiqish o'rinli emas. SHuning uchun u ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiy va ijtimoiy mehnat sohasini ochiq, murakkab, ko'p aspektli va o'suvchi tizimchasi bo'lib, ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantiruvchidir. Mazkur bozor ishchi kuchiga talab va aholining taklifini tartibga solishda bevosita ishtirok etadi va oqilona bandlikni shakllanishi hamda ishsizlikni kamaytirishga ko'maklashadi.

Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, bahosi va yo'llashdagi raqobat. Talab iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish-ijtimoiy infra tuzilmasi va boshqa sohalarning mehnat bozoriga byurtma bergan, ish haqi fondi, shaxsiy yordamchi xo'jaliklardan daromadlar va boshqa hayotiy vositalar bilan ta'minlangan ishchi kuchi ehtiyojining hajmi va tarkibini aks ettiradi.

Taklif yo'llanma shart bilan ishga ega bo'lishdan manfa'tdor ishchi kuchini miqdor va sifat (soni, jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbi, malakasi, millati, ishlab chiqishi, daromadi va boshqalar bo'yicha) tarkibini ifodalaydi³.

Mehnat bozoridagi ishchi kuchini taklifi murakkab demografik tuzilishga ega. Avvalombor aholining umumiy sonidan yo'llanib ishlashga qodir, yani mehnat qobilyatiga ega bo'lib, uning egasi – xodim mehnat bozorida uni taklif qilishdan, tadbirkor esa uni o'z korxonasida belgilangan vaqt davomida

³ Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti" (nazariy va amaliyot).-Toshkent; "Mehnat", 2004.

foydalanish uchun yo'llanishidan manfaatdor qismini ajratish kerak. Aholining umumiy sonidan ikkita yirik guruhning ajratish mumkin:

1) Yollanib ishlashga qodir mehnatga layoqatli va undan yuqori yoshdagi aholi;

2) Yollanib ishlashga qodir bo'lmagan mehnatga layoqatli yoshdan kichik va kattaroq aholi;

Birinchi guruh quyidagi guruhchalarga bo'linadi:

a) iqtisodiyot sektorlarida yollanish bo'yicha band bo'lganlar;

b) yollanish bo'yicha band bo'lmaganlar;

v) ish qidirib erkin harakat qiluvchi shaxslar.

Ikkinchi guruh ham guruhchalarga bo'linadi:

a) mehnatga qobilyatli yoshdan kichik aholi, ya'ni 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar;

b) mehnatga qobilyatli yoshdan keksaroq aholi, ya'ni yoshi va nogironligi tufayli ishlamayotgan nafaqaxo'rlarning asosiy qismi.

Mehnatga layoqatli aholi, ayniqsa uning iqtisodiy faol qismi mehnat bozorining shakllanishida asosiy demografik hamda hisoblanadi.

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash uchun muayan qadam qo'yilgan bo'lib bu qadriyatlar orasida eng muhim mehnatning ixtiyorligidir. Endilikda ijtimoiy mehnatda ishtirok etish keyin yoki kerak emasligini tanlashdan iborat ustuvor huquq insonning o'ziga tegishlidir.

Milliy iqtisodiyotda aholini mehnat bilan ta'minlash endilikda amalda ijtimoiy foydali faoliyatning birdan-bir sohasi hisoblanmaydi. Mehnatning umumiyligi huquqiy burch sifatida mustahkamlangan vaqtda u ana shunday edi. Mehnat sohasi ijtimoiy foydali ish bilan bandlikning o'qish, uy-ro'zg'or ishlari, bolalarni tarbiyalash va hokazolar kabi teng huquqiy va hamma uchun qulay sohalardan biriga aylanmoqda. Ixtiyoriy ish bo'lib bandlikka barham berish sababi bitta – u ham bo'lsa, tirikchilik vositalarning g'ayriqonuniy manbaidir.

O'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatidan foydalanishdan iborat favqulotda huquq tamoyili insonning o'ziga ma'qul bo'lgan joyda o'zi xoxlagan vaqt

mobaynida ishlash huquqini nazarda tutadi. Har kim o'zi uchun qulay vaqt va ish bilan bandlik usulini mustaqil nazar, hammaga doimiy, qisman, vaqtincha bo'ladigan ish bilan bandlik, o'rindoshlik bilan ishlash ish vaqtini tashkil etishning moslashuvchan grafiklariga xosdir. Kasb tanlashdagi huquqning cheklanmaganligi va iqtisodiyot sohalaridan birida mehnat qilish huquqi ham muhim hisoblanadi (bunda yakka tartibda mehnat qilish ham kirishi mumkin).

Favqulotda tanlash huquqi jamiyatda har kimning u yoki bu ish bilan bandlik turi yoki kasbga bo'lgan ehtiyojini qondirish majburiyati bilan tenglashtirish to'g'ri bo'lmaydi. Jamiyat barchaga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun teng huquqiy shart-sharoitlar yaratib berish kerak, yani agar biror kishi tadbirkor bo'lmoqchi ekan, jamiyat uning uchun huquqiy shart-sharoitlar berilishi lozim, lekin bu kishi tadbirkor bo'lish-bo'lmasligi uning shaxsiy fazilatlariga bog'liqdir.

Bunday ish bilan bandlikning ikkinchi tamoyili fuqarolarning mehnat huquqini ro'yobga chiqarish uchun davlatning shart-sharoitlar yaratib berishi kerakligi oydin bo'ladi. Ish bilan bandlik siyosatida uni qattiq tartibga solishdan voz kechish, ijtimoiy sohada mehnat qilishning majburiy emasligi, ijtimoiy foydali mehnat qilishning har qanday sohasini tanlash erkinligi va ixtiyoriyligi orqali inson manfaatlari va ehtiyojlarining namoyon bo'lishiga yordam berish asos qilib olingan.

Davlatning ish bilan bandlikka ko'maklashish tamoyili asosida mehnat qilish huquqini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan erkin ishtirokchilar iqtisodiy xulq-atvoriga bevosita usullar bilan tuzatish kiritishdan iboratdir. Bunda davlatning ish bilan bandlikka bevosita ta'sir ko'rsatish choralari rag'batlantiruvchi tadbirlarning ustuvorligiga asoslanadi. Bu o'rinda mehnatkashlarning tadbirkorlar va hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarni hamda erkinliklarni buzadigan vositalar bo'lmasligi kerak. Ish bilan bandlikka ta'sir ko'rsatishning o'zini ochib berish asosida uni (bandlikni) istalgan yo'nalishida shakllantirish jarayonini bevosita to'g'ri yo'lga solish yotadi. Ish bilan bandlikka ko'maklashish tamoyili ijtimoiy mehnat munosabatlari sub'ektlarining taraqqiyot yo'nalishlarini ishlab

chiqarishda va uni tartibga solishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etishlaridan iboratdir. Bu sub'ektlar yollanma xodimlar, ish beruvchilar bo'lib ular kasaba uyushmalariga, assotsiatsiyalar va ittifoqlarga birlashganlar.

Bu kuchlarning ish bilan bandlikni rivojlantirishda yaqindan o'zaro yordam berishlari ish bilan bandlikning holatiga faol ta'sir ko'rsatib, uning sifat jihatlarining har tomonlama yaxshilanishga yordam beradi. Bunday jihatlariga ish band aholining ta'limot va kasb-malaka tarkibi, uning tarmoq va demografik tuzilishi, yuqori ijtimoiy iqtisodiy harakatchanligi, raqobatdoshlik va shu kabilar kiradi.

Ish bilan bandlik masalalarini ko'rib chiqarayotganda mehnat va ish bilan bandlik o'rtasidagi aniq farqni ajrata bilish kerak. Mehnat-insoning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan faoliyati bo'lib, harakatlarni aniglatganligi, kuch-quvvat sarflanishi, natijadorlik, ijtimoiy va hokazolar shular jumlasiga kiradi. Mehnat vaqt xususiyatiga ega, u bo'linadi va dam olish bilan almashinib turadi. Mehnat ish kuchini ishlab chiqarishda ishlatish jarayonidir. Ish bilan bandlik insonning mehnat qilish munosabati bilan bog'liq holda kechadigan ijtimoiy rivojlanishning muhim tomonlaridan biridir.

Mehnatdan farqi o'laroq, ish bilan bandlikni odamlarning aniq ish joyidagi amaliy faoliyatiga tenglashtirib bo'lmaydi. Ish bilan bandlik mehnatga layoqatli odamlarning ish bilan qanday ta'minlanganligini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, odamni ish bilan band hisoblash uchun u biron-bir jamoaning a'zosi bo'lishni yoki o'z ishini yaratish kerak.

Bizga ma'lumki iqtisodiyot va insonning ehtiyojlariga to'g'ri kelishi darajasiga qarab oqilona, samarali mahsulotlar va eng maqbul ish bilan bandlik darajalariga ajratiladi.

Oqilona ish bilan bandlik hududlarida aholini darajasini oshirish mohiyati mazmuni bir necha tushunchalarni ichiga oladiki, ularning mehnat bozoridagi bor-yo'qligiga qarab ish bilan bandlik oqilona ekanligi yoki oqilona emasligini aniqlash mumkin. Bular, jamiyat, ijtimoiy guruh va ayrim shaxsning manfaatlarini hisobga olish; jamiyatning iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlanishini

ta'minlash; jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'zgarishlariga hozirjavoblik kabilardir. Oqilona ish bilan bandlikni iqtisodiy faol aholini umumiy sonida mahsuldor ish bilan bandlar ulushni tavsiflaydi.

Ish bilan bandlikning oqilona ish bilan bandlik kabi shakli mavjudligini barcha olimlar ham tanolavermaydi. Ko'pchilik faqat to'liq va samarali ish bilan bandlikni ajratishga moyildir. Holbuki, oqilona ish bilan bandlik tasniflash elementi bo'lishi lozim va avvalo, shuning uchun lozimki, ish bilan bandlikni samarali deb qator yillar o'tganidan keyin, uzoq istiqboldagina baholash mumkin, mehnat sohasida va ish bandlik borasida jarayonlarni boshqarish uchun esa qisqa va o'rta muddatli istiqboldagi ish bilan bandlikni samarali ish bilan bandlikka qarama-qarshi qo'ymaslik kerak.

Oqilona ish bilan bandlik-samarali ish bilan bandlikning shart-sharoiti, unga erishishdagi pillapoyadir. Oqilona ish bilan bandliksiz samarali ish bilan bandlik bo'lmaydi.

Samarali ish bilan bandlik ijtimoiy boshqaruvining jamiyat rivojining mazkur bosqichida turmush tarzining mezonlari taqozo etadigan xodimlarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tiklab borishga qodirligini nazarda tutadi. Ish bilan bandlikning samarali tusda bo'lishni daromad keltirgan ijtimoiy foydali faoliyat bilan band bo'lishni hamda ish o'rinlarining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lishini nazarda tutadi.

Samarali ish bilan bandlik, shuningdek, ko'plab variantlar orasidan iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik mezonlari yig'indisi bo'yicha aniqlangan eng yaxshisini tanlab olishni ham nazarda tutadi.

Qo'yidagi 3.3-jadvalda Samarqand viloyati bo'yicha mehnat resurslar soni va oqilona bandlikni ta'minlash haqida ma'lumot aks ettirilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki viloyat aholisi soni 2017 yilda 3651,5 ming kishiga o'sishga erishilgan bo'lib, mehnatga layoqatlilar soni 2062,6 ming kishi bo'lib, o'rtacha band aholi soni 1485,1 ming kishidan iborat bo'lib, 2017 yilda yaratilgan 77659 ta ish o'rinlaridan Tayloq tumanida 8246 ta, Samarqand shahrida

13465 ta ish o‘rinlari yaratilgandir. Bu borada aholini ish bilan bandligi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

3.3-jadval

Samarqand viloyat shahar va tumanlarida aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o‘rinlari haqida ma'lumot 2017 yil

	Doimiy aholining o‘rtacha soni, ming kishi	Mehnatga layoqatli aholining o‘rtacha soni, ming kishi	O‘rtacha band aholi soni, ming kishi	Ish qidiruvchi sifatida ro‘yxatga olinganlar, kishi	Jami yaratilgan ish o‘rinlar soni
Jami	3651,5	2062,6	1485,1	127	77659
Samarqand sh.	524,0	372,9	303,0		13405
Kattaqo‘rg‘on sh.	86,1	60,4	46,1	5	1918
tumanlar:					
Oqdaryo	149,6	90,8	55,7	17	3542
Bulung‘ur	175,5	82,0	61,8	11	4510
Jomboy	159,1	82,8	62,9	3	3556
Ishtixon	237,1	112,0	78,9	8	4842
Kattaqo‘rg‘on	256,6	132,9	100,5	17	4593
Qo‘shrabot	123,0	63,7	43,4	11	3062
Payariq	234,2	128,8	89,6	14	4519
Pastdarg‘om	232,0	170,7	113,3	1	5156
Paxtachi	136,4	84,8	60,7	11	3867
Samarqand	236,9	177,2	113,5	1	5032
Narpay	201,6	107,3	76,6	4	3623
Nurobod	141,2	70,5	52,4	-	3552
Tayloq	187,9	99,4	66,1	18	8246
Urgut	470,3	226,4	160,6	86	4336

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotidan.

Mahsulot ish bilan bandlik shunday ish bilan bandlikki, u ishlab chiqarish samaradorlikni oshirish, fan-texnika taraqqiyotini yutuqlarini joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish maqsadlariga javob beradi, yuqori malakali, yaxshi o‘qitilgan va harakatchan xodimlar sog‘lom avlodni takror etishtirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XTM)ning ta’rificha, mahsuldor

ish bilan bandlik-mehnat mahsullari jamiyat tomonidan qabul qilinib, haqi to'lanadigan odamlarning ish bilan bandligidir.

Eng maqbul ish bilan bandlik insonning doimiy ish bilan band bo'lishga davlat tomonidan kafolat bo'lmagan taqdirda jamiyatda muayan mavqe egallashni ta'minlaydigan shaxsiy tarkibda haq to'lash shart-sharoitlari asosida moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish maqsadida mehnat jarayonida qatnashishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1) Sanoat ishlab chiqarish korxonalarini kengaytirish, qayta rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish maqsadida investitsiyalarni jalb etish va bu jarayonlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri bu mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, yangi korxonalarni tashkil etish, ularda yangi texnologiyalarni qo'llash orqali raqobatbardosh eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish, aholi bandligini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdan iborat ekanligini belgilab berilgan.

2) Xududlarda mehnat resurslariga nisbatan aholining tabiiy o'sishi yuqori. Biroq ular ham hududlar, tarmoqlar va faoliyat doiralari bo'yicha tekis taxsimlangan. Tashkil etilayotgan yangi korxonalar va ish joylari soni mehnatga layoqatli aholining o'sish sur'atlaridan farq qiladi. Xo'jalik aloqalarining uzilishi, bir qator ishlab chiqarish sabablaridan o'sish sug'urtalarining pasayishi, iqtisodiyotning tuzilmaviy o'zgarishi, aholi bandligi sohasida muammolarni yanada keskinlashtirdi. Aholining bilim va malaka darajasi bozor munosabatlarining yuqori talablariga to'liq javob bermay qoldi. Ayniqsa, yoshlarning ishga layoqatli qismida ish bilan ta'minlamaganlar soni o'sib bordi.

Muammoning echimi – bu ko'proq mehnat talab qiladigan kichik va xususiy yangi ishlab chiqarish korxonalarni tashkil etish hisobidan yangi ish joylarini sonini keskin ko'paytirish, bu yo'l katta investitsiya vositalari va vaqtni talab etadi.

3) Xususiy kapitalni aholining shaxsiy jamg'armalarning maksimal jalb qilish, fuqarolarning shaxsiy tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularga qonunlar chegarasiga ko'proq erkinliklar berish, shungidek;

- CHet el kapitalini jalb qilish, uning samarali faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratib (huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqalar) berish;

4). Xududlarda korxonalarni modernizatsiyalashtirish va kengaytirish orqali yangi ish joylarni yaratishga qaratilgan shaxsiy mablag'lar jamg'arish qismining ko'payishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali ser mehnat sohalarni ko'paytirishda, qo'shimcha ish joylarini yaratish uzoq muddatli kreditlash,

mablag'larni ko'paytirish, bank tizimidagi ishlarni faollashtirish. Korxona modernizatsiya qilish loyihalarini mahsulot tayyorlash hajmini ko'paytirish, tovarlarni yangi turlarini o'zlashtirish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish uchun imkoniyatlarni kengaytirish. Buning uchun esa mahalliy xom-ashyolarni qayta ishlash jarayonida ilg'or texnologiyalardan foydalanish va faoliyat yuritayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, eskirgan texnologiyalarni zamonaviy talablarga javob beradiganiga almashtirish uchun maqsadli investitsiyalarni jalb etish.

5). Ishlab chiqarish korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash yanada jadallashtirish, zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etishda, iqtisodiyotning keng tarmoqlaridagi, eksportga yo'naltirilgan, mahalliyashtirilgan ishlab chiqarish hududlarida joylashgan tumanlarga imtiyozli xorijiy kreditlar, grantlar mablag'larini tadbirlarini ishlab chiqarish.

Yangi texnologiyalar joriy etilgan korxonalarda shaxsiy mablag'lar hisobini, yoshlarning oliy va o'rta maxsus ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv maskanlari tarmog'ini kengaytirish;

6) Aholi bandlik darajasini ta'minlash orqali mehnatni qo'llash darajasi doirasi kengayadi. Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi ko'payadi. Insonlarning yashash darajasi ko'tariladi. Jamiyatdagi ijtimoiy tanglik pasayadi.

Aholi bandligini ta'minlashda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi muhim ahamiyatga egadir.

Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'min etilganligini tahlil etishni korxonani ijtimoiy rivojlantirish rejasini bajarilish holatini o'rganish bilan bog'liq ravishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Xodimlar malakasini oshirish;
- Xodimlarning mehnat sharoitini yaxshilash va sog'lig'ini mustahkamlash;
- Ijtimoiy-madaniy va uy-joy maishiy sharoitlarini yaxshilash;
- Mehnat jamoasi a'zolarining ijtimoiy himoya qilinishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari

1.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2016.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: “Iqtisodiyot huquq dunyosi”, 2018.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahrir). –T.: Adolat, 1998.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi” Qonuni. 2012 yil 26 aprel.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi “Xususiy korxonalar to'g'risida”gi Qonuni/Qonun va qarorlar. T., “O'zbekiston”, 2004 yil. № 3

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari

- 2.1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli “Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida”gi Qarori. “Xalq so'zi” gazetasi, 2009 yil 23 yanvar.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 28 yanvar, PQ-1050-son.

2.5. Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish choratadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 05.01.2006 yil. №PF3706.

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi" 2005 yil 16 uyun.

2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442 sonli Qarori.

2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan investitsion to'g'risida"gi 1668-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

3.1. Ishga joylashishga muxtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to'g'risida. 24.05.2007 yil. №106. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilishga oid me'yoriy va uslubiy hujjatlar to'plami. T.: "Mehnat", 2007 yil, 72-bet.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Nizomi.. "Xalq so'zi" gazetasi, 11.01.2010 yil.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 apreldagi 104-sonli Qarori. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil 15son, 5.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1.1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

1.2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ma’ruzalari

2.1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. “Xalq so‘zi”, 2016 yil 15 dekabr.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqi. “Xalq so‘zi”, 2017 yil 22 dekabr.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2017 yil 7 dekabr.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. “Xalq so‘zi”, 2018 yil 18 mart.

2.5. Sh.M.Mirziyoyev. “Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish jadal taraqqiyotga xizmat qiladi”. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018 yil 20 aprel, №79 (7037).

III. Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasida chop etilgan

1.1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: “Mehnat” - 2009.

1.2. Abdurahmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2008.

1.3. Artiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “Iqtisodiyot”, 2004.

1.4. Вахабов А.В., Сабиров О.Ш., Абдулатипов М.Ф. Особенности

управления рисками инвестиционных проектов в коммерческих банках. – Т.: “Иқтисод-Молия”, 2009. 152 с

1.5. Vaxabov A.V., Xojibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma.; i.f.d., professor A.V. Vaxabovning umumiy tahrir ostida. – Т.: “Moliya”, 2010. – 328 b.

1.6. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma.-Т.: “Moliya” 2010. 328 b.

1.7. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “ Moliya ”, 2011.

1.8. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Монография. – Т.: «Молия», 2011. – 300 с.

1.9. Jo‘raeva A.S., Xo‘jaqulov D.YU., Mamatov B.S. Investitsiya loyixalari tahlili. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Sharq, 2003. – 256 b.

1.10. Kuzieva N. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar moliyaviy va kredit mexanizimini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. – 296 b.

2. Rossiyada chop etilgan

2.1. Бакланов П.Я. Территориальные структуры хозяйства в региональном управлении. – М.: Наука, 2007. – 239 с.

2.2. Воронцовский А.В. Инвестиции и финансирование (методы оценки и обоснования). – СПб.: Изд-во С. – Петербургского университета, 1998. – 528 с.

2.3. Дружинский Г.В. Региональная парадигма экономической модернизации: инвестиционная составляющая // Региональная экономика: теория и практика. Научно-практический и аналитический журнал. – Москва, 2009. -№7 (100). – С.42-46.

2.4. Игнонина Л.Л. Инвестиции. Учебное пособие. – М.: Экономистъ, 2005. – 478 с.

2.5. Как сделать инвестиционный климат благоприятным для всех / Пер. с

IV. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1.1. Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2014.

1.2. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’lumotlar tarixi. – T.: “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, 2005

1.3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. // TDIU. – T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2017, 244 bet.

2. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma’ruza to‘plamlari

2.1. “Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to‘plami. 2015 yil 18-21 dekabr, 525-528 b.

2.2. O‘zbekiston iqtisodiyotini institutsional rivojlantirish: yutuqlar, muammolar, echimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to‘plami (II qism). 2016 yil 12 mart, 218-221 b.

V. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

5.1. “Xalq so‘zi” gazetasi 2014-2018 yil sonlari.

5.2. “Bozor, pul, kredit” jurnali 2014-2018 yil sonlari.

5.3. O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali 2014-2018 yil sonlari.

5.4. “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali 2014-2018 yil sonlari.

5.5. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2014-2018 yil sonlari.

5.6. SamDU Ilmiy axborotnomasi. 2014-2018 yil sonlari.

5.7. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hisobotlari.

5.8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi hisobotlari.

5.9. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat Qo‘mitasi hisobotlari.

5.10. Samarqand viloyat Bandlik va mehnat munosabatlari Bosh boshqarmasi hisobotlari.

5.11. Samarqand viloyat Statistika Bosh boshqarmasi hisobotlari.

VI. *Internet saytlari*

1. [http: //www.president.uz](http://www.president.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining veb-sayti.

2. [http: //www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi veb-sayti.

3. [http: //www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz) – “O‘zbekiston iqtisodiyoti” jurnalining veb-sayti.

4. [http: //www.mintrud.uz](http://www.mintrud.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholining ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining veb-sayti.

5. [http: //www.samarqand.uz](http://www.samarqand.uz) – Samarqand viloyat hokimligi veb-sayti.